

**“RESEARCH AND EDUCATION”**  
Scientific Research Center

**INTERNATIONAL CONFERENCE  
ON LEARNING AND TEACHING  
2022/10**

**ISSN: 2181-3191**

**30 JUNE, 2022 YEAR**

**International Scientific Conference**

**RESEARCHEDU.ORG**



**PKP | INDEX**

**Uzbekistan, Tashkent**

# “RESEARCH AND EDUCATION” Scientific Research Center



## “INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING 2022/10”

[www.researchedu.uz](http://www.researchedu.uz)

**Languages of publication:** o‘zbek, english, русский, қазақ, тоҷик, қарақалпақ

**TASHKENT, UZBEKISTAN**

**2022/ JUNE 30**



## РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ГЕЛЯ НА ОСНОВЕ KALANCHOE CRENATA НАW

**Назарова Зарифа Алимджановна**

Ташкентский фармацевтический институт, Ташкент, Узбекистан.

e-mail: [nazarovazarifa@list.ru](mailto:nazarovazarifa@list.ru)

**Камолова Хулкар Акрам кизи**

Ташкентский фармацевтический институт, Ташкент, Узбекистан.

e-mail: [kamolovahulkar3@gmail.com](mailto:kamolovahulkar3@gmail.com)

**Аннотация:** Разработаны состав и технология геля для применения в стоматологической практике в качестве противовоспалительного средства. Для подбора оптимального состава геля использованы гелеобразующие вещества, разрешенные к применению в медицине. В результате проведенных исследований предложен состав геля, состоящего из сока каланхоэ курдывого, спирта, фурацилина, метилцеллюлозы, глицерина.

**Ключевые слова:** каланхоэ сок, фурацилин, метилцеллюлоза, гель, технология, стоматология.

**Введение.** В фармацевтической практике аппликационные лекарственные формы, как гели, мази, линименты и кремы и др. находят широкое применение ввиду того, что они могут быть как местного так и общего резорбтивного действия, в них сочетаются многие разные фармакологические группы лекарственных веществ, технология приготовления несложная и не требует специальных аппаратур и легко удаляются с кожи и белья. Известно, что одним из перспективных направлений фармацевтической технологии является разработка лекарственных средств на основе лекарственного растительного

сырья. Лекарственные средства, приготовленные на основе растительного сырья являются малотоксичными и могут применяться длительное время без побочных явлений [1].

В настоящее время среди населения самыми распространенными заболеваниями полости рта является пародонтоз, гингивит, стоматит и др. Для профилактики и лечения заболеваний в стоматологической практике потребность в лекарственных средствах растёт [2].

Целью исследования является разработка технологии стоматологического геля противовоспалительного действия на основе *Kalanchoe crenata* Haw.

Растение Каланхоэ многолетнее вечнозелёное с сочными листьями, на концах зубцов образуются молодые растеньица. Поэтому Каланхоэ относится к живородящим растениям. Распространено как комнатная культура.

Сок каланхоэ содержит флавоноиды, дубильные вещества, полисахариды, микро- и макроэлементы: алюминий, магний, кальций, медь, силиций и марганец. По фармакологическим свойствам сок малотоксичен, обладает бактерицидными и бактериостатическими свойствами. Известно, мазь каланхоэ. Сок и мазь каланхоэ обладают противовоспалительными свойствами. В стоматологии сок применяют при острых диффузных, катаральных и хронических формах гингивита, афтозном стоматите [3].

Фурацилин - это 5-нитрофурфурола семикарбазон, его международное название нитрофурал является антибактериальным средством [4].

Для подбора оптимального состава геля использованы следующие гелеобразующие вещества: производные целлюлозы - метилцеллюлоза (МЦ) [Eph 1997 - S.10146], карбоксиметилцеллюлоза натриевая соль Na-КМЦ [ТУ 6-55-89-90 ], а также карбопол-934 [Ph Eur monograph 11 th ed.-2007 : 0946] и вспомогательное вещество и очищенная вода [ФС 42 Уз-0511-2017]. При подборе состава геля были учтены физико-химические свойства взятых компонентов. Количества входящих в состав модельных гелей лекарственных и вспомогательных веществ приведены в табл. 1.

Состав геля, г

Таблица 1.

| Название ингредиентов, г                          | Составы, г |          |          |
|---|------------|----------|----------|
|   | Состав-1   | Состав-2 | Состав-3 |
| Сок каланхоэ                                      | 40,0       | 40,0     | 40,0     |
| Спирт этиловый                                    | 5,0        | 5,0      | 5,0      |
| Фурацилин   | 0,01       | 0,01     | 0,01     |
| Метилцеллюлоза (МЦ)                               | 5,0        |          |          |
| Карбоксиметилцеллюлоза<br>Натриевая соль (Na-КМЦ) |            | 3,0      |          |
| Карбопол-934                                      |            |          | 4,0      |
| Глицерин  | 10,0       | 10,0     | 10,0     |
| Раствор натрия диоксида 1М                        |            |          | 0,01     |
| Вода очищенная                                    | до 100,0   | до 100,0 | до 100,0 |

**Технология геля на МЦ:** Отвесим 0,01 нитрофураля, растворимость (1:5000) добавляли кипящую воду (но не кипятить), после полного растворения к 20 мл горячего раствора добавили порошок МЦ и оставили для набухания на 30-40 мин, затем добавили остальную часть раствора нитрофураля, сок каланхоэ и глицерин, тщательно перемешивали до образования однородной массы. Упаковывали в банку из темного стекла.

**Технология геля на натриевой соли карбоксиметилцеллюлозы:** Сначала приготовили 0,02% раствор фурацилина. После его охлаждения порошок Na-КМЦ залили раствором фурацилина 0,02% комнатной температуры и оставили для набухания на 60 мин. Затем нагревали на водяной бане при температуре 50-70° С до полного растворения. В последнюю очередь добавляли сок каланхоэ и глицерин, упаковывали в банку из темного стекла.

**Технология геля на карбополе-934:** Сначала приготовили 0,02% раствор фурацилина по правилам как с труднорастворимым веществом и оставили для охлаждения. Затем к нему добавили порошок карбопола-934 с раствором 1М NaOH оставили для набухания на 6 ч. Перемешивали до полного растворения, затем добавили сок каланхоэ и глицерин, перемешивали и упаковывали в банку из оранжевого стекла.

Для выбора оптимального состава геля на основе *Kalanchoe crenata* Haw определяли следующие показатели: внешний вид, однородность, отсутствие расслоения, коллоидная стабильность и термостабильность геля под воздействием низких и высоких температур.

В результате определения выше приведенных показателей гели с соком каланхоэ и раствором нитрофурала, приготовленные на основах Na-КМЦ и карбопола-934 оказались неудовлетворительными. Гель на основе Na-КМЦ по консистенции оказался жидким, а гель на основе карбопол-934 получился в виде творожистой массы.

Гель состава-1 хорошо наносится на кожу и по органолептическим свойствам (консистенция, цвет, запах) отвечает требованиям НД. Таким образом, для дальнейших исследований выбрали гель первого состава. Нами определены такие физико-химические показатели, как внешний вид, подлинность, однородность геля, устойчивость к перепадам температуры, величина рН водного извлечения, плотность геля, коллоидная стабильность и потеря массы гели при высушивании.

Внешний вид геля определяли визуально, для этого образец геля наносили тонким слоем на предметное стекло и рассматривали простым глазом.

Для определения однородности взяли 4 пробы гели по 0,02-0,03г, поместили пробы на предметное стекло, покрывали вторым предметным стеклом и плотно прижали до образования пятен диаметром около 2 см. При рассмотрении пятен невооружённым глазом на расстоянии 30 см от глаза в 3 из



4 проб не должно обнаруживаться видимых частиц. В пятнах частицы не обнаружены и приготовленный гель отвечает требованиям НД.

Величину рН водной вытяжки геля определяли потенциометрическим методом (ГФ XI 1 т., С.113) при помощи рН-метра Metler Toledo (Германия). Для этого 5,0 навески геля перемешивали с 50 мл очищенной воды и нагревали на водяной бане при температуре 50-60°C, фильтровали через фильтр белая лента (ТУ 6-09-1678-86). Полученные результаты приведены в табл. 2.

Определение коллоидной стабильности. Отвесили около 3,0-5,0 г навески геля и центрифугировали в центрифуге ЦУМ при 1500 об/мин в течение 5 мин. Расслоения геля не наблюдалось.

Для определения термической стабильности взяли 5 пробирок и наполнив на 2/3 их поместили в термостат при температуре 40-45°C на 24 часа, затем образцы поместили в холодильник на 24 часа при 10-12°C. По истечении 24 часов выдерживали при комнатной температуре. При рассмотрении невооружённым глазом расслоения образцов геля не наблюдалось. Результаты приведены в таблице 2.

Результаты определения качественных показателей геля с соком каланхоэ и фурацилином приведены в таблице 2.

Таблица 2

| Название показателей                 | Методы определения           | Характеристика по НД                 | Полученные результаты |
|--------------------------------------|------------------------------|--------------------------------------|-----------------------|
| Внешний вид                          | Органолептически             | Непрозрачная масса желтоватого цвета | Соотв.                |
| Однородность                         | Органолептически<br>ГФ X, ст | Видимых частиц не наблюдался         | Соотв.                |
| Величина рН водной вытяжки геля 1:10 | Евр. Фарм. 2.2.3             | 5,0-6,2                              | 5,8-6,0               |
| Плотность г/см <sup>2</sup>          | Евр. Фарм. 2.2.5             | 9,50-0,980                           | 0,970                 |
| Коллоидная стабильность              | Tsh 42-01-2002               | Не должно быть расслоения            | Соотв.                |
| Термическая стабильность             | Tsh 42-01-2002               | Не должно быть расслоения            | Соотв.                |
| Потеря массы при высушивании, %      | Tsh 42-01-2002               | Не более 14                          | 8,9                   |

В работе приведены средние значения из 5 определений эксперимента.

Как видно из таблицы 2 по качественным показателям гель, приготовленный на основе *Kalanchoe crenata* Haw, противовоспалительного действия отвечает требованиям НД и выбран следующий состав геля:

Сок каланхоэ [ ] - 40,0

Фурацилин [ ] - 0,02

Метилцеллюлоза [Eph 1997.-9.10146] - 5,0

Глицерин – 10,0

Очищенная вода [ФС 42 Уз-0511-2017] - до 100,0

**Технология геля:** Отвесив 0,01 г фурацилина растворили в горячей воде (80-90°C), к горячему раствору (20 мл) фурацилина добавили 5,0 г МЦ и оставили на 30-40 мин для набухания. Затем добавляли остальное количество раствора фурацилина, при тщательном перемешивании прибавили 40,0 г заранее приготовленного сока каланхоэ и глицерин. Перемешивание проводили с помощью механической магнитной мешалки при 1500 об/мин в течение 10-15 мин. Полученный гель упаковали в широкогорлую склянку оранжевого стекла.

**Выводы.** Впервые разработаны научно-обоснованные состав и рациональная технология геля противовоспалительного действия на основе сока каланхоэ с добавлением антисептического вещества фурацилина для стоматологической практики.

### Литература

1. Machado M.A., et al. Management of two cases of desquamative gingivitis with clobetasol and calendula officinalis gel// Biomed Pap Med FacUniv Palacky Olomouc Czech Repub. 2010. Dec. 154(4):334-8
2. Хаджиева З.Т., Лежнева Л.П. и др. Обоснование выбора вспомогательных веществ гелей с фитокомплексами крапивы двудомной и шалфея лекарственного // Современные проблемы науки и образования.- 2014.- №6.-С.14-21.
3. Shayegh S. et al. Phytotherapeutic inhibition of supragingival dental plaque // Nat. Prod. Res. 2008. Mar 20; 22(5):428-39
4. Солихужаев З.С. Дори воситалари. Тошкент: “Камалак”, Т2020.- 1 ва 2 жилдлар
5. Тихонов А.И., Ярных Т.Г.. Технология лекарств. Харьков. Изд. МФАУ “Золотые страницы”, 2002.- 694С.



## ONA TILI DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI AXLOQIY TARBIYALASH

**Berdiyorova Orzigul Qirjigit qizi,**

**Boymanov Jasur Isroil o‘g‘li**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti pedagogika fakulteti “Pedagogika nazariyasi va tarixi” yo‘nalishi 1 – bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Yangi jamiyat qurishda ta’lim-tarbiya, hozirgi vaqtda esa axloqiy tarbiya mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-g‘oyaviy, ma’naviy-madaniy hayotida, ayniqsa, yosh avlodni barkamol inson qilib yetishtirishda muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ushbu mavzu hozirgi kunda dolzarb muammodir.

**Kalit so‘zlar:** odob-axloq, ma’naviyat, barkamol inson, xulq-atvor.

O‘zib kelayotgan yosh navqiron avlodning har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib, jamiyatga kirib kelishini ta’minlash jamiyat oldidagi eng ulug‘maqsadlardandir. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20.04.2017 yil 2909 “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori e’lon qilindi. Ushbu farmonda Oliy ta’lim tizimida o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha dunyoning etakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatish, o‘quv jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning etakchi ilmiy-ta’lim muassasalarida stajirovkadan o‘tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar etarli darajada olib borilmayapti. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o‘z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e‘zozlash —

odamiylikning eng oliy mezoni va bizga tinchlik, omonlik kerak, deb yashaydigan bag‘rikeng va oliyjanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir”, - deb xalqimizning necha asrlardan buyon yagona orzu – ona –Vatan sog‘inchi bilan yashaganini juda to‘g‘ri ta’kidlaydilar.“Agar mendan sizni nima qiynaydi?” deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman."Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta’kidlaydi muhtaram yurtboshimiz.[2.]

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida olib borilayotgan ona tili va o‘qish savotxonligi darslari orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash masalasiga ajdodlarimiz ham befarq qarashmagan, ya’ni yosh avlodni nafosat va axloqan tarbiyalash qadimiy bo‘lib, uning zaminida jamiyat, el-yurt, mahalla, oila va ota- ona turgan. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning nazariy asoslari ochib berildi, innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashning pedagogik mohiyati yoritildi, innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganlik mezonlari ishlab chiqildi.Qadim zamonlardan buyon xalqning o‘z Vataniga muhabbati qo‘shiqlarda, ertaklarda va sharq mutafakkirlarimizning nodir asarlarida tarannum etib kelinadi. Vatanga muhabbat tuyg‘usi insonlarni har doim mehnat qahramonligiga, xalqning baxt- saodati uchun kurashga undaydi. Vatanparvarlik – tug‘ma tuyg‘u emas. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinflarda bu tuyg‘uni tarbiyalashga muhim o‘rin berilgan. Vatan

haqidagi boshlang'ich bilimlar bolalarda ularning hayotiy tajribalari zaminida, tevarak- atrofdagi hayot to'g'risidagi muayyan tasavvurlari asosida hosil bo'ladi. Vatan - har bir kishida o'z uyiga, tug'ilib o'sgan yurtiga, eng yaqin kishilari ota- ona, aka- uka, opa- singillariga bo'lgan munosabatida aks etadi. Bolani vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning individual shakllari asosan oilada amalga oshiriladi. U yoki bu masalada hal qiluvchi rolni oila o'ynaydi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarning oilalari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yishi, ota-onalarni bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoniga jalb qilishi kerak. Shunday qilib, ta'lim muassasasida vatanparvarlik ishining muvaffaqiyati o'qituvchilarning axloqiypsixologik xarakteriga, ularning psixologik, pedagogik va kasbiy tayyorgarligiga, o'z vazifalariga munosabatiga, shuningdek, o'quvchilarning ota-onalari bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyatiga bog'liq.

Yurtga balo kelganida unga qarshi bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilish kerakligini tushuntirish maqsadida Sa'dulla Quronovning "Chumolining jasorati" nomli hikoyasini keltirishimiz mumkin: Qadim zamonda turli-tuman gul va maysalarga burkangan keng o'tloq bo'lgan ekan. U yerda qo'y-qo'zilar, kakliklar, tipratikanlar, toshbaqalar bilan birga turli hasharotlar ham ahil-inoq yashar ekan. Bir yili yoz juda issiq kelibdi. Yomg'ir deyarli yog'mabdi. Jazirama quyosh tig'ida o'simliklar qurib, qovjirab qolibdi. Shunday kunlarning birida yaylovga o't ketibdi. Kutilmagan yong'in jonzotlarni vahimaga solibdi. Hamma tumtaraqay qocha boshlabdi. Birgina chumoli qochmabdi. U o'tloq yaqinidagi buloqdan mitti og'izchasida suv keltirib, olovga purkay boshlabdi. Bu holni ko'rgan boshqa jonzotlar shunday deyishibdi: – Ey chumoli, esingni yedingmi?! Sen olib kelayotgan suv zarrasi bilan olov o'chib qolarmidi? Qo'y bu ishingni, joningni asra! Shunda chumoli yumushidan to'xtamay javob beribdi: – To'g'ri aytasiz, bir zarra suv yong'inni o'chirmaydi. Lekin men urinib ko'rmoqchiman. Chunki bu o'tloq – mening vatanim. Uni asrash uchun menda zarradek imkoniyat bo'lsa, shu imkoniyatdan foydalanaman. Chumolining bu gapi o'tloq ahliga qattiq ta'sir qilibdi. Har tarafga chopayotgan jonzotlar birdan to'xtab, chumolining ortidan ergashishibdi.



Asalari chelakchasida, kaklik tumshug'ida, qo'y-qo'zilar og'zida suv keltirib, olovni o'chirishga shoshilishibdi. Xullas, barcha jonzotlar bir yoqadan bosh chiqarib, olovga suv sepishganida xuddi osmondan yomg'ir yog'gandek bo'libdi. Shu tariqa yong'in o'chirilibdi.[1]

Hikoya axloqiy va axloqiy tarbiyaning asosiy usullaridan biri bo'lib, jamiyatda qabul qilingan xatti-harakatlar normalari haqida talabalarning g'oyalari va tushunchalarini to'plashni o'z ichiga oladi. Qolaversa, bu usul maktab o'quvchilarining tajribalariga asoslanadi, ular orqali o'quvchilar yaxshi va yomonni, adolatli va nohaqni ajrata boshlaydi. Badiiy asarlarni o'rganishda hikoya qilish va tushuntirish usullarini amalga oshirish mumkin. Bu hikoyadan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, agarda yurtga balo kelsa barchamiz bir yoqadan bosh chiqarmo'g'imiz, kurashmo'g'iz darkor.

Xulosa qilib aytganda ona tili va o'qish savodxonligi kitobidagi har bir mavzudan bolalarga kerakli bo'lgan tarbiyani berish mumkin. O'quvchilar ona tili va o'qish savodxonligi kitobidagi ertak, she'r, topishmoq, hikoyalarni o'qib o'zi mustaqil fikrlashga harakat qiladi. Kitopdagi har bir matn o'quvchini qiziqтира oladi, o'zi mustaqil fikrlab matnlarni tahlil qilishga, tarbiyasi oshib borishiga undaydi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. 2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" 1-qism darslik. Toshkent 2021-y.
2. <https://lex.uz> T.: 2017-yil 4-aprel, PQ-2865-son
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" — T.: Sharq 1997-y.
4. Tursunova.O "Oilada bola tarbiyasi" Toshkent 1995-y
5. [www.google.uz](http://www.google.uz)

## “ERTA TA’LIM”DA ONANING ROLI MUHIM

**Ashirova O‘g‘iloy Abduvali qizi**

Guliston davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya:** biz ko‘pincha bola tug‘ilganidan boshlab uning jismoniy rivojlanishiga ko‘proq e‘tibor beramiz. Bu yaxshi albatta, lekin jismoniy rivojlanish bilan bir qatorda uning aqlini ham rivojlantirib borishimiz kerak. Bu maqolada bolalarni aqliy rivojlantirishda erta ta‘lim asoslari hamda bu ta‘limni beradigan onalar haqida so‘z boradi. Ota- onalarga bu borada tavsiyalar berilgan. Erta ta‘limda onaning roli ahamiyatli ekanligi ta‘kidlangan. Maqolada yana onalar uchun mo‘ljallangan “Onalar maktabi” loyihasi haqida ham ma‘lumot berilgan. Bu loyiha orqali onalar uch yoshgacha bo‘lgan bolasini ta‘lim va tarbiyasida nimalarga e‘tibor berishi kerakligi haqidagi bilimlarga ega bo‘lishadi. Uch yoshgacha bolalar ta‘lim-tarbiyasini biz “Erta ta‘lim” deb atasak bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** erta ta‘lim, aqliy rivojlanish, bola tarbiyasi, erta rivojlanish, “Onalar maktabi”, o‘qitish uslubi, loyiha.

Erta rivojlanish deganda ba‘zi ota- onalar “Erta ta‘lim buyuk daholarni tarbiyalaydigan ta‘lim” deb o‘ylashadi hamda bola uch yoshga to‘lgandan keyin unga boshlang‘ich maktabda o‘qitiladigan narsalarni o‘rgatadilar. Bu tamomila noto‘g‘ridir. Chunki yaxshi inson sifatida tarbiya qilishni unutgan holda boladan daho yaratib bo‘lmaydi. Biz uch yoshgacha, bola miyasi nodir qobiliyatlarga ega bo‘lganida unga e‘tibor berishimiz maqsadga muvofiqdir.

Erta ta‘lim berish degani chaqaloqlarni raqamlar va har xil ma‘lumotlar bilan majburan aqliy rivojlantirishga erishish degani emas, albatta. Asosiysi, hamma tajriba va ta‘lim usullarini “o‘z vaqtida” qo‘llay olishdadir. Erta ta‘limni bolani doimo

yonida bo‘ladigan onadan boshqa hech kim uddalay olmaydi, aynan ona bola tarbiyasidagi “kerakli vaqt”ni aniq his qiladi.

Kuzatuvlarim natijasida shunga ayon bo‘ldimki, bizda ko‘pgina onalar bola tug‘ilganidan boshlab, uning hohishlarini bajarib, uni erkalatib o‘stiradilar, bog‘cha yoki maktab yoshiga yetganida esa birdan o‘zgarib uni tarbiyalashga, unga bir narsalarni o‘rgatishga kirishadilar. Bu bolaga yomon ta’sir qiladi, bolaga boshidan muloyim va mehribon bo‘lgan ona, qattiqqo‘l bo‘lib qolsa, u: “Ota- onam meni yomon ko‘rib qolgan” deb o‘ylashi, o‘zini aybdor his qilishi mumkin. Aslida buning teskarisi bo‘lishi kerak. Bola tug‘ilgan ilk yillarda ona farzandini muloyimlik, o‘rni kelsa, qattiqqo‘llik bilan bo‘lsa ham to‘g‘ri tarbiya qilmog‘i kerak. Bu borada “erta ta’lim” usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Ona uchun eng muhim vazifa bola tarbiyasidir. Hozirgi zamonaviy onalar siyqasi chiqqan, eskicha tarbiya usullaridan foydalanishi emas, balki o‘zlarining shaxsiy yondashuvini ishlab chiqishlari kerak. Ona nafaqat tarbiyachi balki, shifokor, dizayner, diyetolog, ma’naviy murabbiy, pedagog, psixolog bilimlariga ham ega bo‘lsa farzandi kelajagi uchun foydali bo‘ladi.

Erta ta’limga hozirgi kunda ham qarshi fikr bildiruvchilar bor, kichik bolalarga biror narsa o‘rgatish befoyda degan fikrlar keng tarqalgan. Bola katta bo‘lib, o‘zini eplashni boshlagandan keyin ota- onalar turli xil yo‘llar bilan uni tarbiya qila boshlaydilar, farzandining ta’limiga e’tibor qaratib, u bilan shug‘ullanadilar. Ota- onalar shunday yondashuvga ko‘nikib qolganlar. Lekin men zamonaviy ona sifatida bunday yondashuvga qarshiman. Ammo, mavjud tizimni isloh qilish – murakkab masala. Biroq bu holatga e’tiborsiz, hech narsa qilmay qarab tura olmayman. Men salkam 5 yildan beri maktabgacha ta’lim tizimi sohasi ichida yurgan kuzatuvchi talabaman, mutaxassisligimdan kelib chiqib, yosh bolalarni ta’lim va tarbiyasiga katta e’tibor qaratganman, ayniqsa, bolalarni aqliy rivojlantirishga, bu sohada chet el tajribasini ham o‘rganmoqdaman. Bu borada yaqinda “Onalar maktabi” loyihasini ishlab chiqdim. Bu loyiha orqali eskirgan tizimni o‘zgartirishga o‘z hissamni qo‘shishni xohladim. Istardimki, barcha ota- onalar bu loyihada ishtirok



etib, o‘zlariga kerakli bilimlarni olsinlar va farzandlarini yetuk shaxs qilib tarbiyalashda foydalansinlar. Farzandi haqida u hali kichik va hech narsani tushunmaydi deb o‘ylaydigan onalar “Onalar maktabi”ni muvaffaqiyatli tugatganlaridan so‘ng, qanchalar xato o‘ylaganliklarini tushunib yetishadi.

Bizda ko‘pchilik onalar o‘zining onalik bilimini oshirishga deyarli mablag‘ sarflashmaydi. Shuni inobatga olib, “Onalar maktabi” loyihasini bepul ijtimoiy loyiha qilib yaratdim. Bu maktabda barcha onalar bepul o‘qishlari mumkin. Bu loyihadan asosiy ko‘zlangan maqsad yurtimiz kelajagi, uning ravnaqi uchun o‘zining munosib hissasini qo‘sholadigan teran fikrli, o‘ziga ishongan, mustaqil, iste’dodli, yutuk farzandlarni kamolga yetkazish, bu ishni amalga oshirishda ularning onalarini o‘qitib, ulardagi kamchiliklarni amalga oshirib bartaraf etamiz. Bola ikki yoshga qadar qanday tarbiya qilinishi uning kelajagini belgilab beradi. Shuning uchun bu davrda ona o‘z farzandining tarbiyasiga jiddiy qarashi muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, bola bir yoshga to‘lgunga qadar ya‘ni unda “men” tuyg‘usi paydo bo‘lishidan oldin, uni to‘g‘ri tarbiya qilish kerak. Bola hali kichikligida qattiqqo‘llikni qattiqqo‘llik deb his qilmaydi. Qattiqqo‘llik qilgani uchun ota- onasidan xafa bo‘lmaydi. O‘z “men”i shakllanib bo‘lgan bola esa urushganingizni yaxshi biladi. Shuning uchun avval bolani faqat erkalatib, keyin qattiqqo‘llik qilinsa, qancha ko‘p koyishsa va jazolashsa, shunchalik ko‘p itoatsiz, qaysar va injiq bo‘lib boradi. Ota- onasidan xafa bo‘lib, ularni eshitishni ham hoxlamaydi. Bu holatdan ota- ona achchiqlanadi, ammo endi bu xatolarni tuzatish ancha qiyin bo‘ladi. Ba‘zi hollarda ota- ona bu holatni tuzata olmaydi, ya‘ni bola erka, qaysar va injiq bo‘lib katta bo‘ladi. Bunday holatni oldini olish uchun bolada “men” tuyg‘usi paydo bo‘lgunicha uni to‘g‘ri tarbiyalamoq shartdir. To‘g‘ri tarbiya qilingan bola jamoaga ham, jamiyatga ham tezda moslashadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytishim mumkin-ki, “erta ta’lim”da onaning o‘rni, ahamiyati yuqoridir. Biz farzandlarimizni kelajakda yetuk shaxs bo‘lishlari uchun, “erta ta’lim”ni ular tug‘ilgan kundan boshlab qo‘llay boshlashimiz kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Masaru Ibuka “Uchdan keyin kech” Toshkent. “Akademnashr”2021.
2. Masaru Ibuka “Uchgacha ayni vaqti” Toshkent. “Akademnashr”2021.
3. Ashirova O‘g‘iloy. Bolalarni aqliy rivojlantirishda erta ta’limning ahamiyati. Journal of new century innovations. 2022.
4. Ashirova O‘g‘iloy, Mavlonova Sitorabonu “Bolalarni aqliy faoliyatini yuksaltirish va ularning mustaqilligini rivojlantirishda erta ta’lim, mayda matorika hamda mental arifmetikaning o‘rni”. ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ. 2022.
5. Ashirov O‘g‘iloy. “Erta ta’limni to‘g‘ri qo‘llash orqali bolalarni jamiyatga ijtimoiy moslashtirish”. “INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING”2022/6 nomli xalqaro konferensiya. 2022



## YOSHLAR AXLOQIY TARBIYASIDA ISLOMIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

**Ergashev Maftunquli Asror o‘g‘li,**

Samarqand davlat universiteti

E-mail: [maftunqulie@gmail.com](mailto:maftunqulie@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu davr nuqtai nazaridan kelib chiqib quydagi maqolada yoshlarimiz ongida, dunyoqarashida kuzatilayotgan ma‘naviy-axloqiy kamchiliklar, ularning ijtimoiy munosabatlarda jumladan, oila, yon atrofdagilar bilan munosabatlar, islom dinida axloq masalasi, yoshlarni islom axloqiy qadriyatlarini ruhida tarbiyalashning ahamiyati, ajdodlarimizning boy ma‘naviy-axloqiy merosi haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Axloq, din, islom, qadriyat, Qur‘on, Xamsa, oila, jamiyat, hadis, tasavvuf.

## THE IMPORTANCE OF ISLAMIC VALUES IN THE MORAL EDUCATION OF YOUTH

**Abstract:** From the point of view of this period, the following article discusses the spiritual and moral shortcomings in the minds and worldviews of our youth, their social relations, including family, relationships with others, the issue of morality in Islam, the importance of educating young people in the spirit of Islamic moral values. -moral heritage.

**Key words:** Morality, religion, Islam, values, Qur'an, Hamsa, family, society, hadith, mysticism.



Bugun o‘ylab qarajak, insoniyat zamonamizga qadar uzoq tarixiy davrni boshdan kechirdi, qanchadan qancha tanazzul-u taraqqiyotga guvoh bo‘ldi. Shu bilan birga ijobiy ma‘noda boy moddiy-ma‘naviy merosga ega bo‘ldi, bu borada katta yutuqlarga erishildi. Biroq, dono xalqimizning ta‘biri bilan aytganda: „Bir yaxshining bir yomoni, bir yomonning bir yaxshisi bor“ deganlaridek, bu taraqqiyot, rivojlanish insoniyatga ulkan muvaffaqiyatlar berganligini inkor etmagan holda salbiy jihatlarini ham tan olish joiz. Yaqin tarixda yuzaga kelgan hamda insoniyat hayotining bir qismiga aylanib ulgurgan “internet” va “ijtimoiy tarmoqlar” shu bilan birga, “globallashtirilgan sivilizatsiya” hamda “madaniyatlar to‘qnashuv”, “ommaviy madaniyat” kabi hodisa va jarayonlar ko‘pchilik insonlar ayniqsa, yoshlar ongi, tafakkuri va dunyoqarashi shakllanishida muhim rol o‘ynay boshlagani ayni haqiqat. Biz o‘z qadriyatlarga ega, imon-e‘tiqod kabi muqaddas tushunchalarni qalbida mustahkam tutgan tarixiy xalq bo‘lishimiz bilan birga zamonaviy dunyoda o‘z o‘rnini egallashga, jahonning buyuk davlatlari bilan bo‘ylashishga intilayotgan bir xalqmiz. Zero, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov minbardan turib ko‘p bora “Kelajak yoshlarimizning qo‘lida” - , deya ta‘kidlaganlar. Modomiki, kelajak yoshlarning qo‘lida ekan, yoshlarimizni yuqorida aytib o‘tgan hodisa-jarayonlarning salbiy jihatlari ta‘siriga tushib qolmasligi uchun ularni imonli, eng muhimi go‘zal axloqli qilib tarbiyalashimiz lozim.

Biz tez-tez eshitadigan “yoshlar buzulib ketyapti”, “hozirgi yoshlarning axloqi yomon bo‘lib ketayapti” va hokazo gaplar bejiz emas. Bunday hollarning asosiy sababi imon-e‘tiqodning zaifligi yoki ularning umuman bo‘lmasligidir. Alloma Homid Ahmad Tohir hazratlarining ta‘biri bilan aytganda: “...boshqa jamiyatlarda kuchli diniy asoslarining yetishmasligi ortidan ma‘naviy va ruhiy inqiroz kelib chiqib, tobora chuqurlashib borayotganini bugun har birimiz ko‘rib guvohi bo‘lib turibmiz. Ammo bu- bizning jamiyatimizda bugun shaxslararo, oilaviy yoki umumijtimoiy muammolar, ma‘naviy pasayishlar kuzatilmayapti degani emas”<sup>1</sup> “Unda farzandlarimizda imon-e‘tiqodni, go‘zal axloqni qanday shakllantirmoq

<sup>1</sup> Homid Ahmad Tohir “Rasulullohning yoshlarga nasihatlari”-Toshkent: YANGI ASR AVLODI-2022-Y. 3-bet

kerak?” degan savol tug‘uladigan bo‘lsa, hech ikkilanmasdan aytishim mumkinki, bunda bizga dini islom va buyuk ajdodlarimizning xususan, Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamning namunaviy hayoti yordamga keladi. Insonga nimaki u yaxshi g‘oyadir yoki yomon g‘oyadir agar, e‘tiqod darajasida singdirilsa u inson tutgan yo‘lidan hech qachon ozmaydi. Shuning uchun ham yoshlarni dunyoqarashi-yu ongini yot g‘oyalar, hatti-harakatlarini buzuq axloqiy mezonlar egallamasdan oldin, ularni go‘zal axloq bilan bo‘lganda ham haq din bo‘lmish islom axloqi ila tarbiyat etmoq shu jihatdan dolzarbdir, ahamiyatlidir.

Islom-go‘zal axloq dinidir. Dinimizda inson(banda)ning chiroyli xulq bilan xulqlanishini amr etilgan. Solihlar aytadiki, kim go‘zal xulq bilan xulqlansa, dinda barchadan o‘zibdi. Zero, Allohu Taolo o‘z Payg‘ambari bo‘lmish Muhammad sollallohu alayhi va sallamga qarata shunday xitob qiladi:

عَظِيمِ خُلُقٍ لَعَلَىٰ وَإِنَّكَ

“Siz buyuk xulq uzradirsiz”(Qalam:4)

E‘tibor bergan bo‘lsangiz Alloh o‘z Rasuliga siz buyuk “din” yoki “islom” uzrasiz demadi balki, “buyuk xulq” ustidasiz deya xitob qildi. Bundan, din bu axloqdir. Kim dinini mahkam tutmoqchi bo‘lsa, go‘zal axloqlar bilan sifatlanmog‘i, kim go‘zal axloqqa ega bo‘lishni istasa dinini yani, islomni mahkam tutmog‘i kerak bo‘ladi degan ma‘noni tushunishimiz mumkin bo‘ladi.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi va sallam shunday deganlar: “Men go‘zal xulqlarni mukammal qilish uchun yuborilganman”<sup>2</sup>, deganlar(Imom Bazzor rivoyati, Imom Ahmad boshqa lafz bilan rivoyat qilgan).

Agar diqqat qilsak, dinimizdagi barcha farz-u vojiblar: namoz, ro‘za, haj va boshqa amallar barcha barchasi insonni nafsini yengishga, chiroyli sifatlar bilan sifatlanishiga sabab bo‘ladi. Kimda kim islom amallarini ixlos bilan chin dildan ado qilsa, u inson go‘zal axloqqa berishibdi deb bimalol aytishimiz mumkin.

<sup>2</sup> Homid Ahmad Tohir, „Rasulullohning yoshlarga nasihati“-Toshkent: YANGI ASR AVLODI-2022-Y, 12-bet

Shahobiddin Suhrawardi o‘zining “Avarif-i Maarif”(Haqiqiy Tasavvuf ) kitobida bir bahsli mavzuni, yani “Axloq,xulq-atvor azaliy uni o‘zgartirib bo‘lmaydi” degan qarash haqida fikr yuritib, bu haqida ushbu fikrlarni keltiradi: “Ba’zi olimlar, insonning yaratilishidan o‘zgarmagani(tashqi shakl nazarda tutilgan) kabi xulq-atvori ham o‘zgarmas, deydilar va bunga dalil o‘laroq quydagi hadisi – sharifni ilgari suradilar: “Robbimiz, jismlarni,axloqlarni,rizqlarni hamda o‘limni taqdir qilib bo‘lgan”<sup>3</sup>

Ammo, eng to‘g‘risi shuki, insonning zohirida hech bir narsa o‘zgarmaydi. Faqat va faqat axloqlarining o‘zgarishi mumkindir. Shunday bo‘lgani uchun ham Rosululloh sollallohu alayhi va sallam: “Axloqingizni go‘zallashtiring”, deya buyurganlar”<sup>4</sup>.

Ba’zi toifa kishilari o‘zlarining xunuk axloqlarini, yomon odatlarini “mening xarakterim shunaqa”, “borim shu” xullas, bukrini go‘r to‘g‘irlaydi qabilidagi so‘zlar bilan o‘zlarini oqlamoqchi bo‘ladilar. Ammo, yuqorida ko‘rdikki, chiroyli sifatlar bilan sifatlanish o‘z qo‘limizda. Dinimiz(Islom)da go‘zal axloq bilan xulqlanishda bir nozik jihat bor. U ham bo‘lsa, eng kichik amalga ham katta ahamyat berishidir. Bunday amallarga: yo‘ldan ozorni olib tashlash,ota-onaga “uff” demaslik,birodariga tabassum bilan qarash, aksa urganda “yarhamukalloh” deyish va hokazolardir. Bu sanoqni yana uzoq davom ettirish mumkin. Ko‘pchiligimiz bularga aksar hollarda ko‘p ham ahamyat bermaymiz ammo, dinimiz bularning ayrimlariga kattadan-katta ajrlar va’da qilgan bo‘lsa ,ayrimlaridan qattiq qaytargan.

Al-Jalol Al-Basriy: “Insonda tavhid bo‘lmog‘i uchun imon lozim bo‘ladi. Imoni bo‘lmaganning tavhidi ham yo‘qdir. Imon esa dinni lozim tutmoqlikni talab qiladi. Dini bo‘lmaganning imoni va tavhidi yo‘qdir. Din uchun esa adab lozimdir. Shu ayonki, adab sohibi bo‘lmaganning haqiqiy ma’noda dini imoni tavhidi yo‘qdir”<sup>5</sup>- deya bizga islomda axloqning ahamyati haqida ta‘lim berar ekanlar biz bundan o‘zimizga kerakli xulosalarni olishimiz shart bo‘ladi. Holbuki, bizning bugun boshqa

<sup>3</sup>Shahobiddin Suhreverdī “Avarifūl Mearif”- [www.tasavvufekitap.com](http://www.tasavvufekitap.com). 228-bet.

<sup>4</sup>Shahobiddin Suhreverdī “Avarifūl-Mearif”-[www.tasavvufekitap.com](http://www.tasavvufekitap.com). 226-bet

<sup>5</sup>Shahobiddin Suhreverdī “Amarifūl-Mearif”- [www.tasavvufekitap.com](http://www.tasavvufekitap.com). 228-bet

xalqlardan ma'naviy jihatdan, odob-axloq borasida xususan, g'arbdan nimadir o'rganishga, axloqda ularga taqlid qilishga hech ehtiyojimiz yo'q. Chunki, bizning buyuk Robbimiz bor, Muhammad deb atalmish Nabiyimiz bor. Bizning A.Navoiy, F.Attor, A.Yassaviy, Z.M.Bobur kabi buyuk bobolarimiz bor. Qur'onimiz bor. “Xamsa”, “Matiq ut-tayr”, “Ilohiynoma”, “Boburnoma” singari buyuk kitoblarimiz bor. Biz agar taqlid qilishimiz kerak bo'lsa, mana shu buyuk insonlarga taqlid qilishimiz, agar ma'naviy kamol topmoqchi bo'lsak, farzandlarimizni qo'yingki, yoshlarni go'zal axloqli qilib tarbiya qilmoqchi bo'lsak, avvalo o'zimiz yuqorida nomlarini zikr qilgan ilohiy, buyuk kitoblarmizning hayot chashmasidan bahramand bo'lishimiz, so'ngra esa o'sib kelayotgan yosh avlodni shu ruhda tarbiyalashimiz kerak.

Yuqorida aytilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib xulosa yasaydigan bo'lsak, ushbularni alohida takidlash kerak: Birinchidan, “terrorizm”, “ekstremizm” kabi yoki shunga o'xshash gaplarni eshitganda ko'pchilikning hayolida dinimiz haqida yomon, xunuk tasavvur paydo bo'ladi. Shu sababli biz bunday botil o'y-fikrlardan halos bo'lishimiz, dinimizning poklik, ezgulik, go'zal axloq dini ekanligini bilishimiz kerak. Ikkinchidan, dinimizni o'rganishimiz shartdir. Eng asosiysi Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamning siyratlarini o'rganish, sahobalar, tobienlar, taba'tobienlarni tanish ularning ibratli hayotidan voqif bo'lish, shu jumladan Hazrat Navoiyning umr yo'llaridan xabardor bo'lish, Farididdin Attor hazratlarini tanish, boshqa buyuk ajdodlarimizning siyratlarini o'rganishimiz lozim. Uchunchidan, boshqa xalqlarga ma'naviy-ma'rifiy sohada namuna bo'ladigan ulkan merosga ega ekanligimizni teran anglash va bunga munosib bo'lishimiz darkor.

Ularni ma'naviy jihatdan ta'lim-tarbiya tizimida ona tili, adabiyot, tarix, ma'naviyat asoslari tarbiya fanlariga singdirish, o'quv rejalariga kiritish lozim.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Homid Ahmad Tohir –“Rasulullohning yoshlarga nasihati”-Toshkent: YANGI ASR AVLODI -2022-Y. 3-12-betlar
2. Şihabuddin Sühreverdi “Avarif-i Maarif” <https://www.tasavvufekitap.com>
3. “Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri” Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. - Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2009.
4. [Ziyouz.com](http://Ziyouz.com)
5. [Acikbilim.yok.gov.tr](http://Acikbilim.yok.gov.tr)



## KUCHMAS MULK OBEKTLARINI DAVLAT RO‘YXATIDAN O‘TKAZISHNING NAZARIY VA USLUBIY MASALALARI

**Azimov Husniddin To‘ramurodovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kuchmas mulk obektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning nazariy va uslubiy masalalari, kuchmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni ro‘yxatdan o‘tkazish sohasidagi davlat xizmatlari sifatini yaxshilash haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kuchmas mulk obektlari, kadastr, xarita, elektron baza, bino va inshootlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi PQ-4270-son “Kuchmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida kuchmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni ro‘yxatdan o‘tkazish sohasidagi davlat xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish ularning tezkorligi va foydalanish imkoniyatlarini oshirishni, davlat organlari faoliyatining shaffofligiga erishishni va xizmatlardan foydalanuvchilarga axborot xizmati ko‘rsatishni yaxshilashni taqozo etmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish, tegishli tizimlarni davlat organlarining elektron ma’lumotlar bazalariga integratsiya qilish kuchmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayonini soddalashtirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

Davlat xizmatlari sifatini oshirish, kuchmas mulkni sotishda ortiqcha tartib-taomillarni qisqartirish, geodeziya va yer kadastr sohasiga tadbirkorlik subyektlarini

jalb etish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, shuningdek, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirish va [davlat dasturidagi](#) vazifalarni bajarishni ta‘minlash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqa.

2020-yil 1-yanvardan boshlab kuchmas mulk obyektni “E-IJRO AUKSION” Yagona elektron savdo maydonchasida auksion orqali sotish (davlat aktivlari qismida) va rieltorlik xizmatlari ko‘rsatish natijasida vujudga keladigan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlar tegishlicha davlat aktivlarini boshqarish agentligi va rieltorlik tashkilotlari tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuborilishi belgilab berildi.

Kadastr ma‘lumotlarining ko‘p mazmunli va maqsadliligi unda alohida kichik tizimlarni ajratish zaruriyatini aniqlagani holda tizimning tarkibini shakllantirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Kichik tizimlarni ajratish prinsining asosiga obyektlar va voqeliklar to‘g‘risida bir xil ma‘lumotlarni tartibga keltirgan shahar kadastrining tarkibi qo‘yilishi mumkin. Ammo kadastrning tarkibida qilingani singari, ajratish yetarli shartdir, negaki turli obyektlar uchun ma‘lumotlarni to‘plash va qayta ishlash usullari bir xil bo‘lishi mumkin. (Masalan, topografik ma‘lumotlar barcha obyektlar va voqeliklar uchun bir xil usullarda to‘planadi va qayta ishlanadi, malumotlarni to‘plash uchun bir xil aero va foto apparaturalardan; teodolitlardan foydalaniladi; malumotlarni qayta ishlash uchun bir xil EHM va hokazo) Shunga o‘xshash faktlarni boshqa jarayonlarga nisbatan ham kuzatish mumkin, masalan, malumotlarni saqlashni bir xil tipdagi EHMda amalga oshirish mumkin.


Kuchmas mulk obektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni kadastr jihatdan ta‘minlash sifatida qaraladigan shahar muhitining obyektlari va voqeliklari to‘g‘risidagi kadastr axborotlariga tashkilotlar va shaharni boshqarish organlari so‘rovlarini tezkor, to‘la va sifatli qondirishga mo‘ljallangan.

Yagona tashkiliy huquqiy va meyoriy texnologik asosda tashkil etiladigan shahar kadastr ta'minoti tabiat shahar kadastr tizimi bilan amalga oshiriladi.

Kadastrning raqamli asosi davlat kadastrining koordinatalar tizimida kuchmas mulk obyektlarining kenglik modeli ko'rinishiga egadir.

Kuchmas mulk obyektlarining chegaralari eng kam hajmdagi topografik axborotlarda shakllanadi. Har bir kuchmas mulk obyekti uchun uning kadastr raqamini ko'rsatish zarur bo'ladi.

Topografik axborotlar shahar muhitida kuchmas mulk obyektlarining holatini yoritish uchun foydalaniladi. Raqamli topografik asosning topografik xaritadan farqi shundan iboratki, joyda kuchmas mulk obyektlarini yoritish talabi aynan ushbu joriy vaqtga to'g'ri keladi. Tezkor rejimda shaharsozlikni muvofiqlashtiruvchi axborotlar ham yangilanishi zarur.



**1-rasm.** Kuchmas mulk obyektlarini qatlami.

Shu sababli ham raqamli topografik asos keng qamrovli tushuncha nuqtai nazardan - bu kuchmas mulk obyektlarini kenglik modelini faol holatini yaratish hamda shu holatda ushlab turish tizimidir. Raqamli topografik asos uchta bazaviy hamda bir necha tematik axborotli qatlamlardan tashkil topadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi PQ-4270-son "Kuchmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Toshkent. O'zbekiston. 2019 yil.



2. O‘zbekiston Respublikasining “Geodeziya va kartografiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 02.07.2020 yil // [lex.uz](http://lex.uz).
3. Yer kodeksiga sharxlar, Toshkent Yuridek universituti 2007 yil.
4. Safarov E.Yu., Musaev I.M., Abduraximov X.A. Geografik axborot tizimlari va texnologiyalari. – Toshkent., TIMI, 2009.
5. Safarov E., Prenov Sh., Mo‘minov A. Topografiya va kartografiya, GAT texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Sano-standart”. 2018.
6. [www.gki.uz](http://www.gki.uz).



## **MUQOBIL ENERGETIKA TIZIMLARINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH – TABIIY BOYLIKLARNI ASRASHDA MUHIM MANBA**

**Axmedov Munisbek Muhammad o‘g‘li**

Urganch davlat universiteti Texnika fakulteti Fakultetlararo umumtexnika fanlari  
kafedrasida o‘qituvchisi

**Xamrayev Og‘abek Oybek o‘g‘li**

Urganch davlat universiteti Texnika fakulteti 5310700 - Elektr texnikasi, elektr  
mexanikasi va elektr texnologiyalari ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: [ogabekxamrayev678@gmail.com](mailto:ogabekxamrayev678@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda muqobil energetika dunyo yoqilg‘i-energetika kompleksini rivojlantirishda tobora muhim o‘rin tutishi, jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan inqirozli hodisalarga qaramasdan, muqobil energetika sohasiga va eng avvalo, qayta tiklanadigan energiya manbalarini o‘zlashtirishga investitsiya sarflanayotgani to‘g‘risida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Muqobil energetika, quyosh energetikasi, biogaz energiyasi, fotoelektrik stansiya, investitsiya.


**Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining qariyb 85-90 foizi ko‘mir, tabiiy gaz va boshqa neft mahsulotlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Bunda “Yashil energiya”ning ulushi 10-14 foizdir.** Internet manbalariga ko‘ra, 2050-yilda jahon aholisi soni 9,8 milliardga yetadi. Bunday demografik o‘shish barcha tizim, jumladan, energetika sohasida ham yechim izlash masalasini qo‘yadi. Qazilma energiya manbalari cheklangan davlatlarda qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ana shunday muammolar yechimi bo‘lib xizmat qiladi. Misol uchun,

quyoshdan energiya olish tabiiy boyliklarni asrashga, insoniyat ehtiyojini qondirishda muhim manba hisoblanadi.

IRENA xalqaro tashkiloti hisobot qilishicha, 2019-yili global energiya ishlab chiqarishda 248,6 GVt qo‘shimcha quvvat qo‘shilgan. Shundan 179 GVt quvvat qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobiga to‘g‘ri keladi. Bu jahon bo‘ylab umumiy qo‘shilgan energiyaning 72 foizi deganidir, va shundan 90 foizi – quyosh va shamol energiyasi. Xususan, quyosh energiyasi 2019-yilda 97 GVt quvvatga ortgan. So‘nggi 10 yillikda qo‘shilib borayotgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarining turlar bo‘yicha ulushi evolyutsiyasini qaraydigan bo‘lsak, quyosh energetikasi qo‘shilayotgan energiya quvvatida eng tez o‘sayotgan qayta tiklanuvchi energiya sanaladi. Bunga asosiy sabab sifatida quyosh energetikasi qurilmalarining kichik masshtabda ham rentabelli bo‘la olishi va sohaga texnologik innovatsiyalar doimiy tatbiq qilinishini ko‘rsatish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimizda mazkur yo‘nalishni rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu talablar asosida O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari salmog‘ini 2030-yilgacha 25–30 foizgacha oshirishi strategik rejasi ishlab chiqildi. Keling, avvalo, qayta tiklanuvchi energiya manbalari nimalardan iborat ekaniga to‘xtalaylik. Atrof-muhitda tabiiy holda qayta tiklanuvchi quyosh, shamol energiyasi, yer harorati, suv oqimlarining tabiiy harakati va biomassa energiyasi ushbu manbalarga kiradi. Keyingi paytda quyosh energiyasidan foydalanish samarali natijalar berayotgani tufayli ko‘pgina mamlakatlarda quyosh elektr stansiyalarini qurishga harakat qilinayotgani fikrimiz isbotidir. Yurtimizda «yashil energiya»ga doir investitsion loyihalar haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, Navoiy viloyati Karmanada 100 megavatt quvvatli quyosh elektr stansiyasini qurish loyihasi ilk qadamdir. Xalqaro moliya

korporatsiyasining texnik ko‘magida «Navoiy viloyatining Karmana tumanida quvvati 100 MVt bo‘lgan quyosh elektr stansiyasini qurish» bo‘yicha o‘tkazilgan xalqaro tenderda Birlashgan Arab Amirliklarining «Abu Dhabi Future Energy Company – Masdar» kompaniyasi, g‘olib deb topildi. Mazkur elektr stansiya respublikamizda davlat-xususiy sherik tamoyili asosida ishga tushiriladigan ilk loyiha.







Prezidentimizning 2019-yil 22-avgustdagi qarori bilan qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran besh yil muddatga soliqning barcha turlarini to'lashdan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatganlik uchun ular foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran 10 yil muddatga mol-mulk solig'ini hamda ushbu qurilmalar bilan band bo'lgan uchastkalar bo'yicha yer solig'ini to'lashdan ozod etilishi nazarda tutilgan. Shuningdek, mamlakatimizda quyosh elektr stansiyalarining hissasi 2025-yilga qadar 2350 MVt va 2030-yilga qadar 5000 MVtni tashkil etadi. Bunda umumiy ishlab chiqariladigan elektr energiyasining 20 hamda 25 dan ortiqrog'i aynan quyosh elektr stansiyalari ulushiga to'g'ri keladi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, ushbu loyihalar mamlakatimizda «yashil energiya» salmog'ini yuksaltirishga qo'yilgan ilk sa'y-harakatlar hisoblanadi. Muhimi, quyosh energetikasi ishlab chiqarilgan energiya narxi bo'yicha an'anaviy energetika bilan raqobatbardosh bo'lishga erishgani mamlakatimizda muqobil energetika, xususan, quyosh elektr stansiyalarini ham joriy etishga yanada ishonch yarata oldi. Muqobil energetika, xususan, quyosh fotoelektrik tizimlarini amaliyotga tatbiq etish energiya samaradorligi madaniyatining shakllanishi va maishiy hayotda tejamkor texnika-texnologiyalar ommalashuvida muhim qadamdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. I.U.Raxmonov Elektr ta‘minoti asoslari. Darslik, Toshkent “Tafakkur avlodi” 2020.
2. A.I.Karshibayev., N.O.Ataullayev., B.SH.Narzullayev., Energiya tejamkorligi asoslari. Navoiy – 2019.
3. O.O.Hoshimov., S.S.Saidahmedov., Elektr yuritma asoslari. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Toshkent – 2007.
4. O.O.Hoshimov., A.T.Imomnazarov., Elektr mexanik tizimlarda energiya tejamkorligi. Toshkent – 2015.



## РЕМОНТ БЕТОННОГО ПОЛА – ВИДЫ ПОВРЕЖДЕНИЙ И МЕРЫ ПО ИХ УСТРАНЕНИЮ

**Абобакирова Зебунисо Асроровна,  
Бобофозилов Ойбек М2-21** (магистрант).  
Ферганский политехнический институт  
e-mail: [bobofozilovoybekjon1995@gmail.com](mailto:bobofozilovoybekjon1995@gmail.com)

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о дефектах бетонных полов, ремонте повреждений и длительном сроке службы бетонных полов.

**Ключевые слова:** бетон, пол, дефект, коррозия, агрессивная среда, трещины, деформация, покрытие.

## REPAIR OF THE CONCRETE FLOOR - TYPES OF DAMAGE AND MEASURES FOR THEIR ELIMINATION

**Annotation:** This article provides information on defects in concrete floors, repair of damage and long service life of concrete floors.

**Keywords:** concrete, floor, defect, corrosion, aggressive environment, cracks, deformation, coating.

Надежность бетонных полов проверена годами. Популярность именно этого варианта наземного устройства обусловлена его длительным сроком службы. Устойчивость к внешним воздействиям дополняется сравнительно невысокой стоимостью материала. Однако даже такое покрытие требует определенного внимания. Чтобы свести затраты на ремонт к минимуму, бетонные полы следует ремонтировать при появлении незначительных

дефектов, снижающих целостность конструкции. Прочность слоев снижается при изменении внешнего вида, в частности: образовании пустот, ямок и трещин; снятие швов; Повышенное пылеобразование. Вы можете решить эти проблемы самостоятельно. Подготовительный этап Основной процесс подготовки для всех методов заключается в следующем. Первым делом нужно снять напольное покрытие [1-5]. Перед проведением ремонта рекомендуется просушить пол в течение суток или нескольких дней, а затем тщательно убрать весь мусор. Ржавчину, плесень и старую обшивку можно удалить проволочной щеткой. Масляные пятна и краску можно удалить химическими средствами. Чем лучше подготовлена поверхность, тем качественнее будет ремонт. Когда арматура «оголяется», ее очищают и обрабатывают от коррозии. Последующий ремонт может быть поврежден. При нарушении технологии устройства бетонного пола в нем со временем появятся дыры. Они также могут образовываться при высоких механических нагрузках. Такие повреждения должны быть немедленно устранены, чтобы предотвратить дальнейшее ухудшение покрытия. Перед ремонтом периметр срезается на глубину не менее 2 см. Для более полного и точного выполнения этого этапа используется алмазный диск (рис. 1).



рис. 1. Глубина по периметру минимальна Вырезать на глубину 2 см.



Старое покрытие удаляется с поврежденного участка перфораторами. Отходы вывозятся из раскопок. Для удаления пыли с очищаемого участка используется пескоструйная машина или промышленный пылесос. Образовавшуюся полость покрывают эпоксидной грунтовкой, а затем заливают корректирующим составом. Затем смесь выравнивается рейкой или правилом. Как только конструкция станет достаточно прочной, участок выравнивается с полом. Ремонт трещины Ремонт трещины также следует проводить сразу же после обнаружения дефекта. Это необходимо для предотвращения расширения зазора, окрашивания краев и растрескивания жидкости и мусора. Кроме того, трещины в бетонном полу могут повредить напольное покрытие. Чем меньше дефект, тем легче будет его исправить. Если глубина щели менее 2 см, то достаточно вырезать канавку до 1 см, если больше, то до 5 см. Дополнительные каналы вдоль щели с обеих сторон для исправления большой трещины необходимо сделать, а затем углубиться в яму [6-10]. Следующий этап – очистка и вытирание пыли производится с помощью строительного пылесоса. После этих процедур края шва покрываются грунтовкой (эпоксидной или полиуретановой), разбавленной растворителем в соотношении 1 к 10. Затем трещина заполняется ремонтным составом на основе эпоксидной смолы или полиуретана. и кварцевый песок в качестве наполнителя (рис. 2).



рис. 2. Смесь для ремонта трещин быть наполненным.

Неисправности могут быть вызваны неровностями при эксплуатации бетонного пола, что может негативно сказаться на напольном покрытии. Такие дефекты часто встречаются в новых домах. Чтобы преодолеть этот недостаток,

пол следует выровнять. Для этого используют фрезерную машину (рис. 3), с помощью которой поверхность выравнивают, углубляют до 1 см и заглаживают подготовленный участок. После удаления пыли с выкопанной поверхности бетонный пол впитывается. Для этого используют полиуретановую или эпоксидную грунтовку, разбавленную 1 к 10 растворителем или сольвентом Р-646. Обработанные поверхности заполняют раствором и выравнивают рейками или линейками. Окончательную полировку пола начинают после застывания извести. Ремонтные швы Деформационные швы в бетонных полах со временем теряют свою прочность и начинают крошиться и разрушаться. При обнаружении таких повреждений следует немедленно произвести ремонт. Полость зашивают алмазным диском, края шва перпендикулярны полу. Бетонные обломки, обломки и хрупкие участки будут удалены из котлована. Полость тщательно очищают от пыли промышленным пылесосом или пескоструйным аппаратом и покрывают эпоксидным грунтом. Вдоль трещин и в местах пересечения швов, на расстоянии не более 3 м от каждого, размещают маркеры из стальных стержней [11-15]. Другой. Шов заполняется ремонтной смесью (рекомендуется использовать цементный раствор с добавлением полимера). После того, как раствор затвердеет, отремонтированные участки полируются. Метки снимаются и по оставленным разметкам делается новый деформационный шов, который зачищается пылесосом. Сверху шов заполняется наполнителем. Обеспыливание бетонного напольного покрытия Рано или поздно бетонный пол начнет пылить. Чрезмерная пыль может повлиять на людей в пыльном помещении. В этом случае даже частой влажной уборки недостаточно. В этом случае спасением может стать краска или специальное покрытие. Для жилых или малонагруженных полов достаточно тонкого покрытия. Это могут быть: Элакор, Поропрайм, Неомер. Этот способ прост и экономичен. Поверхность, очищенная от мусора и пыли, покрывается тонким слоем покрытия (грунтовка, краска или лак). Применяются современные грунтовки, проникающие глубоко в поверхность, не только

препятствующие образованию пыли, но и повышающие морозостойкость, стойкость к истиранию и устойчивость полов к агрессивным веществам. В случае серьезных повреждений бетонный пол потребует капитального ремонта. В этом случае лучший вариант – сделать новую бетонную завесу. Процесс не очень сложный, но требует соблюдения определенных правил: ремонтируемая поверхность должна быть максимально очищена от грязи и пыли, очистить бетонное покрытие помогут специальные смеси; Грунтовку следует использовать для максимального сцепления раствора с поверхностью, для влажных помещений она должна быть водостойкой; Для полного застывания крышки требуется около месяца, в течение этого времени воздействовать на покрытие запрещается. Перед отделкой шторы вся поверхность пола шлифуется шлифовальной машиной и очищается от грязи и пыли. Подготовленный участок пропитывают эпоксидной или полиуретановой грунтовкой. На базовую поверхность наносится самовыравнивающаяся смесь слоем от 5 до 10 см, после чего рекомендуется пройти по поверхности валиком для удаления пузырьков воздуха. При необходимости наносится второй слой смеси. [1-15]

#### **Используемая литература:**

1. Гончарова, Н. И., Абобакирова, З. А., & Мухаммедзиянов, А. Р. (2021). Сейсмостойкость Малоэтажных Зданий Из Низкопрочных Материалов. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES*, 2(11), 209-217.
2. Goncharova, N. I., & Abobakirova, Z. A. (2021). №Scientific-technical journal, 4(2), 87-91.
3. Abobakirova, Z. A. (2021). Regulation Of The Resistance Of Cement Concrete With Polymer Additive And Activated Liquid Medium. *The American Journal of Applied sciences*, 3(04), 172-177.

4. Goncharova, N. I., Abobakirova, Z. A., & Mukhamedzanov, A. R. (2020, October). Capillary permeability of concrete in salt media in dry hot climate. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2281, No. 1, p. 020028). AIP Publishing LLC.
5. Abobakirova, Z. A. (2021). Reasonable design of cement composition for refractory concrete. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 556-563.
6. Гончарова, Н. И., Абобакирова, З. А., & Мухамедзянов, А. Р. (2020). ЭНЕРГОСБЕРЕЖЕНИЕ В ТЕХНОЛОГИИ ОГРАЖДАЮЩИХ КОНСТРУКЦИЙ. In *Энерго-ресурсосберегающие технологии и оборудование в дорожной и строительной отраслях* (pp. 107-112).
7. Yusufovich, G. Y., & o'g'li, R. A. Y. (2022). Formation of a Personal Database of Data in the Creation of Soil Science Cards in GIS Programs. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES*, 3(6), 303-311.
8. Мадумаров, Б. Б., & Манопов, Х. В. (2022). НАЧАЛО РАБОТЫ С ARCGIS. ARCMAP. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES*, 3(6), 325-333.
9. Makhmud, K., & Khasan, M. (2021). Horizontal Survey of Crane Paths. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 410-417.
10. Каюмов, О., Кенда, Д. Я. Я., & Манопов, Х. В. (2019). ВІДНОВЛЕННЯ ТА ЗБІЛЬШЕННЯ ПРОДУКТИВНОСТІ ВОДОЗАБІРНИХ СВЕРДЛОВИН. *ЛОГОС. МИСТЕЦТВО НАУКОВОЇ ДУМКИ*, (8), 47-50.
11. Abduraufovich, Q. O., Valiyevich, M. X., & Dilshodbeko'g'li, H. E. (2020). Some issues of re-utilization of casing strings, unused water intake wells (for example, some countries in the south-western sahel). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(6), 1568-1574.
12. Манопов, Х. В., & Kasimov, M. (2022, May). KARTALARNING RAQAMLI MODELINI YARATISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING* (Vol. 1, No. 8, pp. 252-258).



13. Shavkat o'g'li, Y. S., Zuxriddinovna, M. S., & Qizi, O. D. S. (2022). ARC Create an Agricultural Card in GIS and Panorama Applications. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES*, 3(6), 429-434.
14. Khakimova, K. R., Madaminova, S. S., Yokubov, S. S., & Berdaliyeva, Y. K. (2022). SOME TECHNOLOGICAL ISSUES OF USING GIS IN MAPPING OF IRRIGATED LANDS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(4), 226-233.
15. Arabboevna, A. M., & Shavkat o'g'li, Y. S. (2022). The Use of Geoinformation Systems in the Study of the Land Fund of Household and Dekhkan Farms. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 8, 163-164.



## VALEYBOLCHI BOLALAR JISMONIY RIVOJLANISHINI NAZORAT QILISH USULLARI

**Aliyev Botirjon Bahodirjon o‘g‘li,  
Otamirzayeva Dilafruz Ikromjon qizi**

Namangan davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti magistrantlari

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada yosh valeybolchilarni o‘quv trenirovka mashg‘ulotlari ta’sirida jismoniy rivojlanishi o‘zgarishi haqida nazariy malumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Jismoniy rivojlanish, Marfalogiya, Antropometriya, valeybol sport to‘garaklari, Sport o‘yinlari.

## METHODS OF MONITORING THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF VOLLEYBALL CHILDREN

**Annotation:** This scientific article provides theoretical information and practical recommendations on changes in the physical development of young volleyball players as a result of training sessions.

**Key words:** Physical Development, Morphology, Anthropometry, Volleyball Clubs, Sports Games.

Jamiyat a’zosining jismoniy rivojlanganligiga mavjud ijtimoiy tuzum, undagi muhit, ijtimoiy sharoitning ta’siri muhim rol o‘ynaganligi hozirgi kunda o‘z isbotini topgan. Azal-azaldan insonlar o‘z tanasining rivojlanganligi haqida bosh qotirib o‘z davrning mavjud sharoiti, muhiti, nazariy bilimlari zahirasiga tayanganlar.

Jismoniy rivojlanishni tekshirish gavda qismlarining shakli, hajmi va proporsiyalari haqida organizimning ba’zi bir imkomiyatlarini aniqlab beradi. Ko‘p

hollarda jismoniy rivojlanishning yaxshi davom etishi, jismoniy tarbiya va sport bilan chanbarchas bog‘liqdir. Albatta bu faktlarga tayanib hukumatimiz aholimiz hamda yosh avlodni o‘shib rivojlanishi uchun jismoniy tarbiya va sportga juda ham katta etibor bermoqda. Bunga misol qilib Yurtboshimiz tomonidan 2020-yil 24-yanvardagi 5924-sonli farmonlari “O‘zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish to‘g‘risida”<sup>4</sup> gi farmonlarini ko‘rsatish mumkin. Yosh avlodni jismoniy rivojlanishiga jismoniy tarbiya va sportni ta‘sirini o‘shirish uchun ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va yana olib borilmoqda biz ham ushbu tadqiqot orqali yosh voleybolchilarni jismoniy rivojlanishlariniga voleybol trenirovkasi mashg‘ulotlarining ta‘sirini aniqlashga urindik. Ko‘p hollarda sport mashg‘ulotlarini o‘tkazishga e‘tibor kuchli bo‘lsada sportchi yoshlarni o‘shib rivojlanishiga kam ahamiyat qaratiladi. Ayni vaqtda sportdagi natija va yosh sportchilar jismoniy rivojlashishini nazoratga olish dolzarb masala deb qaramoqdamiz.

O‘shish va rivojlanish jarayoni yagona dialektik yaxlitlik, - miqdor o‘zgarish larni sifat o‘zgarishlarga o‘tishi bilan uzviyligi qonuniyatiga bilan bog‘liq. O‘shish va rivojlanish tananing uzunligi o‘lchovlari va vaznining ortishida namayon bo‘ladi. **Inson jismining o‘shishi va rivojlanishining** o‘z ichiga (qarilik davrini qo‘shish bilan) quyidagi **asosiy qonuniyatlarni** oladi. Ular: **a).Endogenlik qonuniyati.** Jismonan o‘shish va rivojlanish tashqi ta‘sirlar bilan bog‘liq bo‘lmay , organizmning ichki ta‘siri va sabablari orqali vujudga keladigan, nasliy dasturga yashiringan, naslni davom ettirish uchun balog‘atga yetishdek organizmning tabiiy talabini qondiradi.

**b) Abadiylik qonuniyati.** Inson bolalik yoki go‘daklik davridagi xususiyatlariga ega bo‘lgan tuzilishiga umuman qaytaolmasligidir.

**d) Sikllilik qonuniyati.** O‘shishning faollashuvi va sekinlashuvi davrlari mavjud bo‘ladi: birinchi - hali tug‘ilmay turib ona qomidaligi va tug‘ilgandan so‘ngi hayotining birinchi oylaridagi davri ; so‘ng 6-7 yoshda o‘shishni jadallashishi sodir bo‘ladi (o‘shishni yarim sakrashi)

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora tadbirlari tog‘risida” 2020-yil 24-yanvardagi 5924- sonli farmoni. Mabuot.uz

va 11-14 yoshga borganda o‘shni keskin sakrashi yoki o‘shning balog‘at sakrashi sodir bo‘ladi.

*e). Olmoniyalik olimlar* o‘sh jarayonini siklliligni hisobga olib, o‘shni faollashuvi va tanamiz massani ortishi bilan bog‘liq o‘shni ushlanishi(sekin lashuvi yoki to‘xtab qolishi) haqida ahamiyatli fikrlarni bildirdilar. O‘shni bir xilda bormasligi yil davomidagi fasilli tezlashuv yoki o‘sh jarayonini pastlashida namoyon bo‘lishi, tananing bo‘yiga o‘shni asosan yoz davrlarida, massani ortishi asosan kuz faslida sodir bo‘lishini isbotladilar<sup>5</sup>.

*f). Asta-sekinlilik qonuniyati.* Jismoniy rivojlanishning bu qonuniyati insonni rivojlanishida birinma ketin, asta sekinlik bilan o‘zining rivojlanish etaplari(bosqichlari) ni o‘tadi. Organizmni normal rivojlanishida bu davrlardan birini “sakrab” tashlab o‘tib ketaol maydi. Skelet suyaklarini o‘shini to‘xtashidan avval suyaklar belgi langan o‘lchovgacha o‘sh ulgurishi lozim. Doimiy tishlarni barchasini chiqib ulgurishi uchun sut tishlari tushib ulgurishi lozim va x.k.

*g). Sinxronlik qonuniyati.* Bir biriga mos ravishda, baravriga ishlashi qonuniyati o‘z ichiga tanamizning turli a‘zolari va tuzilmalarimizni nisbatan bir vaqtning ichida o‘shni va rivojlanishi jarayonini mujassam lashtiradi. O‘sh va qarish tezlashganda sinxronlik qoidasi buziladi. Shuning uchun o‘sh va qarishning tezlashuvi ko‘p holatlarda buzilishlar, kelishmovchiliklar (disgarmoniya)ni keltirib chiqaradi: bu jarayonlar ayrim organlar va tuzilmalarimiz va boshqalarni tempi va ifodalani shidan oldinda bo‘ladi. Tanang umumiy o‘lchami va a‘zolarimizning mutanosibligi -uning uzunligi, vazni, va ko‘krakning kengligini o‘zida mujassamlashtiradi

Jismoniy rivojlanganlik darajasi tanimiz a‘zolarini o‘lchovi (antropometriyasi) ko‘rsatkichlariga qarab aniqlanadi. O‘lchamlarni o‘tkazish, uning metodikasiga oid nazariy bilim va amaliy malakalar asosan “Odam morfologiyasi”, “Biomexanika”, “Davolash jismoniy madaniyati”, “Sport fiziologiyasi” va boshqa qator fanlar orqali o‘qitiladi.

**Ko‘krak qafasining aylanasi asosan uch holatda:**

1) to‘liq (maksimal) nafas olganda;


<sup>5</sup> Морфология человека, под. ред. Б.А.Никитюк и В.П.Чтецова, уч. пос., 2-е изд., издательство МГУ, 1990, 67-68 стр.



2) to‘liq nafas chiqargandan so‘ng;

3) nafas olib bo‘lgandan so‘ng nafas chiqarishni boshlashdan oldingi harakatsiz turgan (pauza) holatdagi vaqtida, o‘lcham olish lentasi bilan o‘lchanadi.

Lenta qovurg‘alarning pastki burchaklaridan o‘tishi - oldindan o‘lchanganida erkaklarniki ko‘krakning o‘rtasidan, ayollarniki esa ko‘krak bezlari oldidan o‘tadi. O‘lchanuvchi ikki qo‘lini yuqori ko‘tarib turishi kerak bo‘ladi (1-rasm).



### *Jismoniy rivojlanganlikning o‘lchamlari*

Jismoniy rivojlanganlikning nazariy bilimlariga hozirgi kunda **organizmning morfologisi oid bilimlari tarkibidan ko‘lamiga ko‘ra keng o‘rin berilgan**. Ularning o‘rganishda quyidagi tibbiyotda qo‘llaniladigan tushunchalarga duch kelamiz. Bular maxsus bilimlar sifatida “Davolash jismoniy madaniyati”, “Sport fiziologiyasi”, “Sog‘lom turmush jismoniy madaniyati”, “Valeologiya” fanlarini o‘qitishda, ular: kalla suyagini o‘rganishda – *kraniometriya*; yurakning xizmat faoliyatini o‘rganishda – *kardiogramma*, yurak qisqarish chastotasini hisoblashda – *pulsometriya*, o‘pkani – *flyurograftiyasi*, buyrakni – *urograftiyasi*, turli morfologik tizimlarni – *morfometriyasi*; bo‘g‘imlarning harakatchanlik darajasini, hajmlarini aniqlash – *goniometriya*; mushaklar kuchini *dinamometriya* va *retrograftiya* deb nomlanadi va ular orqali davolash, olib borilayotgan tadqiqotlarda o‘lchovlar yo‘lga qo‘yiladi.

Bo‘yni o‘shiga qarab yoki u belgilangan darajada o‘sib bo‘lgandan so‘ng uning vazni ham muvofiq holda ortadi.

Jismoniy rivojlanganlikning ko‘rsatgichlaridan yana biri uning vaznii, tana massasi, uning zichligidir.

Tanamiz massasi ko‘rsatkichlarining yuqoriligi jismoniy rivojlanganligimizning yaxshi sifati deb qaraladi. Tana va uning a‘zolari qanchalik darajada baquvvat, pishshik, kuchi ufrif turganligi ko‘zga tashlansa uni shunchalar jismonan rivojlangan deb qarashlari haqida o‘qidingiz. Massaning kattaligi, basavlatlik (jonli til bilan aytganda) jismoniy rivojlanganlikni ko‘rsatkichi emas. Tananing umumiy vazni - skeletning vazni, muskullar, yog‘ to‘qimalari, ichki a‘zolar, teri kabi tarkibiy qismlardan tashkil topadi. O‘larning har birining nisbiy miqdori (%) yosh o‘tgan sari doimiy o‘zgarishdadir<sup>6</sup>.

Jismoniy rivojlanganlikni o‘lchashda uning bo‘laklarini - qismlarini o‘zaro mutanosibliyi ya‘ni proporsiyasi deb nomlanadigan o‘lchovga duch kelamiz. Qoida tarzida tanamiz proporsiyasi unin yuqori qismi (boshi va bo‘yni) kesimining katta kichikligi, tanasi, tayanish va suyanish a‘zolarining alohida bo‘lagi (segmentlari)ni tananing umumiy o‘zunligiga yoki gavdaning umumiy o‘lchamiga nisbatan yoki ayrim segmentlari o‘lchamining foyiziga nisbatan tasnifi tushuniladi.

Tanamizni rivojlanganligini baholashning amaliyotda eng keng tarqalgani uslubiyotlaridan biri indekslash metodidir. Bunda eng sodda hisoblashlar yorda mida tanamiz a‘zolari bo‘laklarini o‘z aro nisbati tasnifini qilish imkoniyatini beradi. Kichik o‘lchamning kattaligi kattaning foyizida ifodalanadi.

Turli indekslarning qo‘shilmasidan inson tanasi proporsiyasining uch xil asosiy guruhga ajralib chiqadi:

- I. oyoqlari uzun, tanasi qisqa va ingichkalar
- II. oyoqlari kalta, uzun va keng tanaga ega bo‘lganlar .
- III. tanasining o‘lchami o‘rtachalar .

Qayd qilingan tana proporsiyasiga oid bilimlar bo‘lajak sport mutaxassisiga jismoniy mashqlarni mashg‘ulotlar uchun tanlashda xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik, sog‘lomlashtirish maqsadidagi yoki sport mahoratini oirishni maqsad qilib sport turlarini tanlashda adashmaslikni oldini olish uchun qo‘l keladi.

---

<sup>6</sup> A.Abdullayev, Sh.X.Xonkeldiyev Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2016. -410.b

Hozirgi kunda o'lovlar o'lanayotgan a'zoga qo'l tekkazish hamda qo'l tekkizmay o'lchash bilan o'tkaziladi. Qo'l tekkazish bilan jismoniy rivojlanganlik o'lovlar uch xil ko'rinishda: tananing uzunasi, ko'ndalangi hamda tananing aylanasi o'lchash orqali rivojlanganlik baholanadi. Bu o'lchamlar rivojlanganlikning eng zaruriy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Kuzatishlar insonning jismoniy rivojlanishi 25 yoshga borib susayishi, ayrimlarini esa, masalan, bo'yiga o'sishning to'xtashini ko'rsatdi. Bu organlar va to'qimalarni o'zgarishdan to'xtadi degani emas, 25 yoshga borib shakllanib bo'ldi degani xolos.

Organizimni keyingi jismoniy rivojlanishi *ikki yo'nalishda* davom etadi:

1). *jismoniy faollikni ta'siri orqali* - jismoniy mashqlar (jismoniy ish) bilan shug'ullanish turmush tarzi davomida odatga aylantirilsa, mushaklarni mashq lantirish to'xtatilmasa, faol harakatlanish davom ettirilsa organizimdagi o'zgarish muskullar va tuzilmalarni takomillashishi tomon, ya'ni tashqi ko'rinish, qiyofaning basavlatligi tomon o'zgarishlarsodir bo'ladi;

2). *kam harakatlanish*, jismoniy ish bilan shug'ullanishni chegaralanganligi, ustiga – ustak to'yib ovqatlanishga odat shakllangan bo'lsa, organizmning rivojlanishida buzilishlar yuzaga keladi, muskullar so'lishadi, uning tolalari ingichkala shadi, teri osti va ichki organlarda yog' bosishi tez sodir bo'ladi.

Tananing yog' bosishi, to'lishib ketish, qorin mushaklari (to'g'ri, kundalang va qiya) ni bo'shashishi, hazm qilish organlari va boshqa a'zolarning o'lchamini, hajmini kattalashishi, yo'g'onlashishi hisobiga ular organizmda joylashgan joyini “tark” etishlariga sabab bo'ladi. Masalan, medaning to'yib va ko'p ovqatlanish hisobiga hajmini kattalashishi boshqa hazm qilish organlarini joylashishini o'zgartiradi (qorin osilib qoladi) oqibati tananing ko'rinishini o'zgarishini yuzaga keltiradi. Mukammal har tomonlama jismonan shakllangan qaddi-qomat egasi bo'lish faqat individning o'zigagina bog'liq.

Jismoniy rivojlanganligining ko'rsatkichlariga qarab turli xildagi kasblar, hunarlarni egallash uchun turli tanlovlar va unga oid tadbirlar o'tkaziladi. Kasb-hunarlarini egallash uchun jismoniy rivojlanganlikning ko'rsatkichlari, tana bo'laklarining o'lchamlarining ahamiyati, ayniqsa, sportning ma'lum bir turi bilan shug'ullanish uchun o'tkaziladigan tanlovlarda jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlariga e'tibor kuchli bo'ladi.



Masalan, bo‘yning uzunligi – basketbolchi, voleybolchi, qo‘l to‘pi o‘yinchi lari, tennis va boshqa sport turlari bo‘yicha sportchilar tayyorlashda naf beradi.

Biz mazkur tadqiqotimizni Namangan viloyatining Pop tumanidagi 45-sonli Umumta’lim maktabida “Valeybol” bilan shu yilning septyabr oyidan shug‘illana boshlagan 10 nafar o‘gil bolalarni tadqiqot guruhi sifatida yana shu yoshdagi Pop tumanidagi 5–sonli umumta’lim maktabidan 10 nafar nazorat guruhida taqddqiqot ishini 6 oy davomida olib borish oraqali yosh valeybolchilarning jismoniy rivojlanishiga valeybol trenirovkasi mashg‘ulotlari ta’sirini o‘rganish jarayonida yakuniy natijalarni quydagi 1- jadvalda keltirdik.

**Yosh valeybolchilarning jismoniy rivojlanishiga valeybol trenirovkasi mashg‘ulotlari ta’sirini o‘rganish jarayoni yakuniy natijalari**

*1-jadval*

| No | Antropometrik ko‘rsatkichlar      | Jinsi | N  | Tajriba<br>$x \pm m$ | Nazorat<br>$x \pm m$ | T    | P     |
|----|-----------------------------------|-------|----|----------------------|----------------------|------|-------|
| 1  | Bo‘yi                             | O‘    | 10 | 166.7±4.9            | 153.4±2.4            | 7.8  | >0.01 |
| 2  | Vazni                             | O‘    | 10 | 52.5±4.5             | 43.7±1.4             | 4.44 | >0.01 |
| 3  | O‘tirgan holatdagi gavda uzunligi | O‘    | 10 | 85±2.8               | 76.1±1.4             | 8.9  | >0.01 |
| 4  | Ko‘krak aylanasi                  | O‘    | 10 | 84.8±4.2             | 73.8±1.7             | 7.8  | >0.01 |

Mazkur tadqiqot ishimizda valeybol mashg‘ulotiga dastlab qatnaasha boshlagan yosh ganbolchilarning jismoniy rivojlanishini dastlabki ko‘rsatkichlari va 6 oydan keying natijalri bir biriga taqqoslash orqali aniqlashga urindik. Unga ko‘ra tajriba guruhi a’zolarining umumiy natijasi bo‘yi uzunligi, nazorat guruhidagi bolalarnikidan 13.3 sm ga o‘sgani, vazinida esa 8.8 kg ga va ko‘krak aylanasining 11 sm ga ortgani aniqlandi.

**Xulosa**

Mazkur tadqiqotni olib borishda sport mashg‘ulotlari va ular orqali hal qilinadigan vazifalar qatorida yosh valeybolchilarni jismoniy rivojlanishini doimiy nazoratga olish razuriyati borligi va bunga ko‘p soha mutaxassislari etiborsiz bo‘layotgani sezilib qolmoqda.Ushbu etiborsizlik natijasida yosh sportchilarni o‘sib rivojlanishi uchun sarflanishi razor bo‘lgan komponentlarni boshqa vazifalar uchun sarf bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada yoshlarni o‘sishi va rivojlanishi birmuncha susayadi. Shunday muammolarni hal etish uchun yoshlarni sportga jalb qilgandan



so‘ng ularga tegishli bo‘lgan jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini doimiy nazoratga olgan holga mashg‘ulot mikrosikllarini to‘g‘rilash yoki ayrim o‘zgartirishlar kiritish talabi yuzaga keladi. Shundagina biz yosh sportchilarni ham yuqori jismoniy tayyorgarlikga ham jismoniy rivojlanishini yaxshilashga erishamiz. Boshqacha aytganda son va sifat ko‘rsatkichlarini mutonsip qilib rivojlantiramiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora tadbirlari tog‘risida” 2020-yil 24-yanvardagi 5924- sonli farmoni. Mabuot.uz
2. A.Abdullayev, Sh.X.Xonkeldiyev Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2016. -410.b
3. F.A.Kerimov ” Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar”. Toshkent. ”Zar qalam” -2004.-447.b.
4. SH.K.Povlov,O.X.Abdalimov,Z.Ye.Yusupova. Valeybol nazaryasi va uslubiyoti. Darslik Toshkent 2017-yil 415.b
5. R.S.Salomov. Jismoniy tarbiya nazaryasi va metodikasi. Darslik – Toshkent 2014-yil 284 b
6. Морфология человека, под. ред. Б.А.Никитюк и В.П.Чтецова, уч. пос., 2-е изд., издательство МГУ, 1990, 67-68 стр.

## MATEMATIKA FANI BARCHA FANLAR NEGIZIDA

**Bozorova Sitora Akmalovna,**

Buxoro shahar 23-IDUM maktabi o'qituvchisi

E-mail: [bozorovasitora723@gmail.com](mailto:bozorovasitora723@gmail.com)

**Annotatsiya:** ushbu maqola boshlang'ich ta'lim muassasalarida matematika fani bo'yicha ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, mamlakatimizda matematika sohasiga qaratilayotgan e'tibor xususida yoritilgan. Shuningdek matematika fanlar imuniteti sifatida ona tili, musiqa hamda falsafa fanlari bilan bog'liqlik darajasi taqqoslangan.

**Kalit so'z:** Innovatsiya, metodika, renessans, mental, investor, algebra.

## MATHEMATICS IS THE BASIS OF ALL SCIENCES

**Annotation:** This article is about the introduction of advanced technologies in mathematics in primary education, the attention paid to mathematics in our country. It also compares the degree of connection with the mother tongue, music, and philosophy as the immunity of the mathematical sciences.

**Keywords:** Innovation, methodology, renaissance, mental, investor, algebra.

Yurtimizda siyosat, madaniyat, ta'lim sohalari bugungi kunda yuksak bosqichda rivojlanmoqda. Aslida tarixga nazar soladigan bo'lsak. Ma'lumki, sharqiy renessans davrlari tarixda ikki marotaba kuzatilgan. Birinchi renessans IX-XII asrlar, ikkinchisi XIV-XVI asrlar o'rta osiyoda fan madaniyat, siyosat kabi sohalar gurgunglab yashnadi. Xususan sharqiy renessans davrida aniq fanlar sohasi ham yuksak bosqichda rivojlangani butun jahon tarixiga ma'lum. Masalan birgina Muhammad al-Xorazmiy ijodini olaylik. Xorazmiy algebra faniga asos solgani, bu fan uning „Kitob almuxtasar filjabr valmuqobala“ asari nomidan kelib chiqqani hammaga ma'lum.

Endilikda uchunchi renessans davri joriy asrda kuzatilmoqda. Buni esa davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ko‘p bora ta’kidlab o‘tmoqdalar. Shu bois al-Xorazmiy kabi kelajakda yangi yetuk mutaxassislarni yetishtirish tayyorlash bugungi kun tanqidiy tahlilida turibdi. Mamlakatimizda joriy qilingan qaysi sohada bo‘lmasin, yangi innovatsion texnologiyalar, yangi metodika, o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqilmoqda. Bu borada endilikda ixtisoslashtirilgan maktab, muassasa faoliyatlari takomillashtirilib, yosh avlod vakillariga ko‘plab yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Xususan, 2017-yil 14-sentyabr kuni prezidentimizning PQ-3274-son birinchi qarorida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan xususiy maktablarni faoliyat yuritishi aytib o‘tilgan edi. Aynan, endilikda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishiga oid fanlari chuqurlashtirilgan holda tizimlashtirilgan shaklda, o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarga joriy yil uchun imtihonlar o‘tkazildi. Biz maqolamizda aynan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablarda ilg‘or surilgan g‘oya va yangiliklar, qo‘yilgan maqsad va vazifalarni, umumta’lim maktablarida ham joriy qilish tog‘risida qayd etmoqchimiz. Bunda esa biz ayrim manbalarga, hamda shaxsiy tajribamizga tayanamiz. Zero, matematika aniq fanlarning immuniteti sifatida yoshlarning ilmiy salohiyati, tajribasi hamda tom ma’noda kelajagining asosi hisoblanadi.

Bugungi kunda har yili, har bir viloyatda joylashgan universitetlarda matematika, amaliy matematika, boshlang‘ich ta’lim, maktabgacha ta’lim kabi yo‘nalishlarda talaba yoshlar bakalvr, magistr bosqichlarini tamomlab umumiy o‘rta ta’lim maktabi, boshlang‘ich ta’lim muassasalariga o‘qituvchi sifatida ishga kirishmoqda. Endilikda maktabgacha ta’lim muassasalari haqida so‘z yuritsak, har muassasasi o‘zining kadr yoshlari, metodikasi bilan ajralib turadi. Har bir maktabgacha ta’lim muassasalarida, qisman, umumiy metodika joriy qilingan. Matematika fani nafaqat murakkab fan sifatida diqqat e’tiborni tortadi, shuningdek mantiq, falsafa fanlari bilan ham bog‘liqligi tufayli umumlashgan aniq fanlardan biri

hisoblanadi. Shu bois matematika fanini o‘qitishdan avval har bir o‘quvchining intellekt doirasini shakllantirish kerak.

Endilikda investor atamasiga to‘xtalamiz. Har bir pedagog, investor sifatida uning qo‘l ostida tarbiyalanayotgan o‘quvchilarga, yangi bilim ko‘nikmalarni hosil qilishda muhim ahamiyatga ega. Shaxsan men boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilari uchun (1-4-sinflar) “P.M.X.B” formulasida matematika fanini o‘qitishda foydalanishni tavsiya qilaman. Bu oddiygina formula murakkab masalalarni yechishdan, o‘rgatishdan avval o‘quvchini darsga tayyorlash uchun zarur. Ya‘ni Psixologiya + Mantiq + Xotirjamlik + Bilim = Yaxshi natija. Ko‘pchilik pedagoglar dars jarayonlarida ushbu formulani teskari ravishda foydalanishadi. Masalan, matematika mantiq, aniq yechimlarga asoslanar ekan o‘quvchi avvalo psixologik holatda darsga tayyor bo‘lishi, dars boshlanishidan avval mantiqni ishlatadigan, ya‘ni aqlni charxlaydigan oddiy misol va masalalarni o‘quvchilar bilan birgalikda yechish, so‘ngra xotirjam ravishda darsni boshlab o‘quvchilarga bilim ulashish kerak.

Matematikaga oid ilmiy maqolalar to‘plamlar va metodik qo‘llanmalarga yuzlanamiz. Shaxsiy tajribadan kelib chiqqan holda, men, avvalo, umumta‘lim maktablariga taqdim etilgan dasrliklarga to‘xtalib o‘tmoqchiman. (Masalan 1-sinflar uchun umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida qo‘llaniladigan darslik. (“Turon-Iqbol” Toshkent-2013) jami bir yuz qirq oltita mavzudan hamda mustahkamlashlardan iborat.) Avvalo, o‘qituvchi dasrlik bilan to‘liq tanishgan, xususan, darsda berilgan ma‘lumotlarga qo‘shimcha materiallar bilan qurollangan bo‘lishi darkor. Xususan, dasrda qo‘shish va ayrish misollari va masalalari berilgan bo‘lsa pedagog ularga qo‘shimcha ravishda audio, videolar orqali bo‘lmaganda, kim birinchi top kabi sodda o‘yinlardan foydalanishi zarur.

Endilikda M+M formulasiga to‘xtalib o‘tamiz, ya‘ni matematika+musiqa formulasi, aslida musiqa matematikaning bir qismi sifatida o‘rganib kelingan. Shuningdek Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy kabi olim ajdodlarimiz, musiqa san‘atini matematika faniga asoslangan holda sharxlab berishgan. Abu Nasr Farobiyning “Kitab al-Musiqa al-Kabir” asariga to‘xtalib o‘tamiz. Ushbu asar orqali



Farobiy sharq nazariyasiga asos soldi. Aynan, bu jarayonni qanday amalga oshirilishiga nazar soladigan bo‘lsak matematika sohasidagi qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish amallarini musiqa san‘atiga ko‘chganligi bilan izohlab beramiz. Masalan, qadimgi g‘arb olimlari ham musiqa san‘atini matematika fanining bir qismi sifatida ilmiy ishlar olib borishgani ma‘lum va mashhur. Bunda “interval” kabi atamalarni musiqa ilmida ham iste‘mol qilinishi isbot sifatida ko‘rsatish mumkun.

Hozirda ham matematika musiqaning negizini tashkil qilar ekan, musiqa ham matematikaning qismini tashkil etishini aytmoq lozim. Shuning uchun matematika fanini chuqurroq o‘zlashtirish, bolalarni intellektini rivojlantirishda musiqaning ahamiyati ham katta. Masalan, fortepiano cholg‘an bolalarda miyya yarim sharining ikki qismi yaxshi ishlashi tadqiqodlar natijasida isbotlangan. Shuningdek kompazitorlar ham asar yaratayotib matematik shakl nuqta’ nazariga ham ahamiyat berib o‘tishadi. Shu bois bugungi kunda uchunchi renessans sifatida matematika fanini musiqaga doir aloqalarini ham o‘rganish tadqiq qilish ilmiy metodiklar ishlash joizdir.

Xulosa qilib aytganda, matematika bugungi kunda aniq fanlarning asosi, imunitetidir. Yuqorida aynan musiqa va ona tili fanlari bilan matematika faning bog‘lilik darajasini bejiz qayd etmadik. Uchunchi renessans davrida oldingi renessans qonun qoidalarini g‘oyalarini ham bugungi renessansda davr talabidan kelib chiqqan holda ishlatmoq kerak. Shuning uchun matematika fanini o‘qitishda avvalo, o‘qituvchi va pedagoglarning ilmiy salohiyati tayyor bo‘lishi, so‘ngra darsga kamida zerikarli o‘tmasligi uchun noanaviy tarzda yondoshmog‘i kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
2. Matematika 4-sinflar uchun darslik. Toshkent-2013-y.
3. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Kutubxona. [adu.uz](http://adu.uz)

## SHARAFIDDIN ALI YAZDIY “ZAFARNOMA”SIDAGI AYRIM ASKARIY QISM NOMLARINING YASALISHI

**Suyunova Dildora Sadridin qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

e-mail: [suyunovad28@mail.ru](mailto:suyunovad28@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temur davlat boshqaruvidagi qo‘shin turlarining tarkibi, morfologik jihatdan harbiy atamalarning so‘z yasash (affiksial yoki kompozitsion) tizimi ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** qo‘shin tarkibi, lashkar, askariy nom, termin, affiksial termin yasash, kompozitsiya.

### ANNOTATION

This in the article Amir Timur state managed army species composition , morphological in terms of military terms word construction ( affixal or composition ) system open is given .

**Key words :** structure of army, army, military name, term, make of affixal term, composition.

Sharafiddin Ali Yazdiyning Amir Temur hukmronligi davriga oid “Zafarnoma” asari o‘rta asrlar tarixnavisligining ajoyib yodgorliklaridan biridir. Muarrix “Zafarnoma” asarini Shohruhning o‘g‘li Ibrohim Sulton tashabbusi bilan bitganligini aytadi. Sharafiddin Ali oldiga asarni jonli hamda tushunarli qilib yozish talabi qo‘yilgan. Muallifning niyatiga ko‘ra, asar “Muqaddima” qismi va uchta maqoladan iborat bo‘lishi kerak edi. Birinchi maqolani Temurga, ikkinchisini Shohruhga, uchinchisini Shohruhning o‘g‘li Ibrohim Sultonga mo‘ljallagan. Asar niyat qilingan

birinchi maqolasidan iborat xolos. Boshqa ikki maqola yo‘q – u Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan yozilmagan yoki yozilgan bo‘lsa ham bizgacha yetib kelmagan <sup>7</sup>.

Asarda Sohibqiron davlatida qo‘shin tarkibi, askariy qism bo‘linmalarining qay tartibda ekanligi batafsil berilgan. Amir Temur qo‘shinlari asosan piyoda va otliq askarlardan tashkil topgan bo‘lsa-da, aksariyat hollarda piyodalar ham uzoq cho‘l safarlarida otlar bilan ta‘minlanar, otliq askarlarning katta qismi piyoda tartibda jang qilishga ham o‘rgatilgan edi. Ular kamondan zarb bilan bexato otish lozim bo‘lgandagina otdan tushib, piyoda jangchilarga aylanardilar. Otliq askarlar oddiy va saralangan jangchilarga bo‘linib, yengil va og‘ir otliq qo‘shinni tashkil etgan. Bundan tashqari, Sohibqironning xos navkarlari ham bo‘lgan.

Har qanday tilning so‘z boyligi u tarixiy yoki zamonaviy tusda bo‘lmasin, insonlar tomonidan tuziladigan rang-barang lug‘atlarda ma‘lum darajada aksini topadi. Lug‘at til so‘z boyligini o‘zida saqlovchi akkumulyator vazifasini bajaradi <sup>8</sup>. Aynan mana shunday termin-lug‘atlardan harbiy terminlar keng o‘rin egallagan. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, “Zafarnoma”dan o‘rin olgan leksik birliklar qatori, temuriylar saltanatining ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, harbiy, maishiy turmush tarzida mavjud tushunchalarni ifodalovchi istilohlar va leksik birliklar son jihatdan salmoqli hisoblanadi.

Sohibqiron Amir Temur davlat boshqaruvidagi askariy qism nomlarining “Zafarnoma”da keltirilganlarining morfologik tuzilishi haqida so‘z yuritar ekanmiz, bunda, asosan, so‘zlarning yasalishiga, o‘zlashgan yoki o‘zlashmaganligiga e‘tibor qaratamiz.

Harbiy va umumiy adabiy lug‘atni shakllantirishning eng samarali usuli affiksial so‘z yasashdir. Leksik-grammatik so‘z yasash affikslarini quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin:

1. Nominal o‘zaklardan ot atama hosil qiluvchi affikslar;
2. Fe‘l o‘zaklardan ot atama hosil qiluvchi affikslar;

<sup>7</sup> Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Камалак, 1994. – Б.8.

<sup>8</sup> Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Т.: 2019. – Б.14.

3. Otlardan atama-fe'l yasovchi affikslar;
4. Fe'l o'zak va o'zaklardan atama-fe'l hosil qiluvchi affikslar <sup>9</sup>.

Quyida “Zafarnoma”da berilgan askariy qism nomlarining yasalish tizimini ko'rib chiqamiz:

ZABONGIR – I. josus II. Dushman haqida ma'lumot yig'ish uchun asir olib kelish. Bilamizki, zabon fors-tojik tilida “til” degan ma'noni anglatadi. Harbiy yurish paytida dushman tarafdagi vaziyatdan ogoh bo'lish, ularning rejalarini bilish maqsadida zabongirlar ustalik bilan ushbu vazifani ado etganlar. Bu esa jang chog'ida g'alaba tomon yo'l ochib ham bergan. Asli fors-tojikcha bo'lmish –gir affiksi “giriftan-olmoq” ma'nosini bildiradi va hozirgi o'zbek tilida “biror narsani oluvchi, qo'lga kirituvchi, egallovchi, zabt etuvchi” ma'nolarini anglatuvchi tushunchalarni ifoda etuvchi mansabga aloqador shaxs nomini yasaydi.

Eski o'zbek tilida -g'ur/-gür affiksli shaklni sifatdosh guruhiga shartli ravishda kiritish mumkin. Bu shaklda fe'llik belgilari kuchsizlanib, sifatga yaqinlashgan. Ma'no jihatdan hozirgi o'zbek tilidagi *sezgir, chopqir, keskir, o'tkir* kabi sifatlarga o'xshaydi <sup>10</sup>. Zabon ot asosga esa ushbu yasovchi qo'shimcha qo'shib, otdan ot atama hosil qilgan: *U: “Bir oy bo'ldiki, bizning undan xabarimiz yo'q; biz el ichidan chiqib, shu joyda turibmiz. Ammo bir necha kun bo'ldiki, g'oyatda mukammal qurollangan o'n otlig kishi zabongirlik maqsadida kelib, shu yaqinda bir to'qayzor bor, o'sha yerda turibdilar”, - deb javob berishdi.*

POS/POSBON – tungi soqchi. Biror kimsa yoki narsaning xavfsizligini ta'minlash uchun postda turgan qo'riqchi, qorovul. Bu so'zning asosi “pos” forscha so'z bo'lib “tunning bir qismi” degan ma'noni anglatadi. Hozirgi o'zbek tilida –bon affiksi (fors-tojikcha) kam miqdorda leksemalarni hosil qiladi. Ushbu affiks “asosdan anglashilgan narsani saqlovchi, unga qarovchi shaxs” ma'nosini bildiruvchi harbiy mansab nomini yasaydi. –bon ham qo'shimcha, ham saqlovchi, qo'riqlovchi ma'nolarida kelib, yangi bir atama yasashga xizmat qilgan: *Shahar devori bo'ylab*

<sup>9</sup> Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики старо-узбекского языка. – Т.: Фан, 1990. – С.70.

<sup>10</sup> Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Т.: 2008. – В.186.



*soqchilar va posbonlar uchun uylar belgilangan, uning to‘rt tomon burchagidan har birida bir burj – manora ko‘tarilgan.*

DAH/DAHA – lashkar bo‘linmalaridan eng kichigi o‘n kishilik guruh. “Dah” fors-tojikcha so‘z bo‘lib, o‘n degan ma‘noni bildiradi. Daha leksemasi o‘nlik so‘ziga teng, shuningdek, dahboshi (o‘nboshi) ma‘nodosh sifatida qo‘llaniladi.

TAXSHANDOZ – kamondan o‘q yog‘diruvchi sipohiyalar. –andoz affiksi fors-tojik tillariga oid bo‘lganligi uchun ham o‘zbek tilida maxsus so‘z yasovchi element sifatida qaralmaydi. Chunki u hozirgi bosqichda o‘zbekcha (umumturkiy) asoslarga qo‘shilib leksemalar hosil qilmaydi. Shunday bo‘lishiga qaramay, o‘zbek tilida –andoz affiksi “biror harbiy quroldan o‘q yoxud snaryad otuvchi shaxs” ma‘nosini anglatgan ayrim so‘zlar mavjud. –andoz yasovchili leksemalarning barchasi diaxron planda harbiy mansab nomlarini ifodalovchi leksema hisoblanadi. Mazkur qo‘shimcha vositasida taxshandoz leksemasi ham yasalgan bo‘lib, “taxshadan, ya‘ni o‘q otuvchi quroldan o‘ziga xos snaryad otuvchi shaxslar boshlig‘i” ma‘nosida qo‘llaniladi. Ra‘dandoz, tirandoz, naftandoz leksemalari ham xuddi shunday yasama hisoblanadi: *Jang salohlari bilan orosta fillar ustiga taxtlar o‘rnatilgan, fillar safi yonida ra‘dandozlar va taxshandozlar hozir, har bir fil ustida esa bir necha o‘q otuvchi o‘ltirar edi.*

Askariy qism nomlaridan yana quyidagilar ham asarda o‘z ifodasini topgan: ug‘ruq – (aynan “chodir”) lashkar ortidan zaxira, aslaha va boshqa anjomlarni olib yuruvchi qism ( *Hazrat Sohibqiron ug‘ruqni cherik bilan Shayx Ali Bahodurg‘a tobshurub, saodat bila otlanib, bahodur yigitlari bila ilg‘or solib, Tabrizg‘a mutavajjih bo‘ldi. Z.106.* ), bo‘y qo‘shuni – lashkarning qalb qismidagi xos bo‘linma, nikovulon – dushmanni ta‘qib etuvchi sipohiyalar ( *Mang‘loy lashkari nikovul bo‘lib dushmanlar izidan chopqin yasadi va ularni bir –biridan ajratib, tarqatib yubordilar. Z. 286.* ), taloya – (razvedka) vaziyat haqida xabar keltirish uchun lashkardan oldinga yuboriladigan kichik harbiy bo‘linma ( *Ardasherni taloya sifatida lashkar ahvolini bilib turish uchun tayinladi. Z. 192.* ), qul/g‘ul – qo‘shinning markaziy qismi

( *Va Sohibqiron g‘ul cheriki bila balchiqdin chiqib, bir o‘tlog‘da tushti, va shahzodalar uchun kishi qaytardi. Z.163.*).

Amir Temur davrida qudratli qo‘shinning yuzaga kelishi va harbiy mudofaa tizimining takomillashuvi harbiy atamalarda o‘z ifodasini topgan. Sohibqiron Temur davlat boshqaruvidagi qo‘shin tuzilmasi tarkibining leksik-morfologik jihatdan o‘rganilishi harbiy terminologiya sohasida samarali ishlarni olib borishda hamda askariy nomlarning etimologiyasida ham katta o‘rin tutadi. Harbiy sohaga oid istilohlar sifatida ishlatiluvchi leksemalar diaxron va sinxron aspektda olinganda bir-biridan farqlanuvchi leksemalar qo‘llanilganini ko‘rish mumkin. Ta’kidlash joizki, Amir Temurning jahon harb ishi va harb san‘atiga qo‘shgan ulkan xizmatlari beqiyosdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: 2008.
2. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – T.: 2019.
3. Dadaboyev H., Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. – T.: Sahhof, 2021.
4. Mo‘minova O. O‘zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tarkibi. – T.: 2009.
5. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Камалак, 1994.
6. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. – Т.: Шарк, 1997.
7. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики старор-узбекского языка. – Т.: Фан, 1990.
8. <http://www.ziyonet.uz>.

## ODAM ORGANIZMINING MIKROFLORASI

**Elibeyeva Feruza Xamzayevna**

Buxoro shahar 8-maktab o‘qituvchisi

E-mail: [feruzaelibayeva@mail.com](mailto:feruzaelibayeva@mail.com)

**Annotatsiya:** ushbu maqolada inson organizmida uchrovchi zararli va foydali mikroorganizmlar va ularning inson organizmida tutgan o‘rni, tuzilishi, inson organizmining ichki mikroflorasi haqida batafsil ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** tranzitor mikroorganizmlar, kon’yuktiv mikroflora, mikroplazma, stafillakokk bakteriyalar, streptokokklar, korinebakteriyalar, saprofit grammanfiy diplokokklar.

## MICROFLORA OF THE HUMAN BODY

**Annotation:** This article provides detailed information about harmful and beneficial microorganisms in the human body and their role in the human body, their structure, the internal microflora of the human body.

**Keywords:** transient microorganisms, conjunctival microflora, microplasma, staphylococcal bacteria, streptococci, corynebacteria, saprophytic gram-negative diplococci.

Sog‘lom odam organizmida uchraydigan mikroorganizmlarning yig‘indisi odam mikroflorasini tashkil qiladi. Tug‘ilgunga qadar steril bo‘lgan odam organizmiga mikroblarning birlamchi tushishi, tug‘ish jarayonida qindagi bakteriyalar tomonidan amalga oshiriladi, so‘ngra tashqi muhit tasirida va yangi tug‘ilgan go‘dakka yaxshi qaragan odamlar bilan alohida mikroflora shakllanadi.

Normal mikroflora quyidagi vazifalarni bajaradi: immunizatorlik, antagonistik, indikatorlik va ovqat hazm qilish jarayonida faol qatnashadi.

Odam hayot faoliyati davomida uchrashadigan mikroorganizmlar shartli 4 guruhga bo‘linadi:

1. O‘tkir yoki tranzitor mikroorganizmlar

2. Foyda keltiradigan vakillar: ovqatni parchalaydi, hazm qildiradi, vitamin hosil qildiradi, antagonistik ta‘sirga ega-bularga bifidobakteriyalar kiradi

3. Sog‘lom odamlarda doim uchrab turadigan va u bilan ma‘lum darajada tenglashib turadigan mikroorganizm, ya‘ni shartli-patogen shakllar.

4. Yuqumli kasallik qo‘zg‘atuvchilari.

Odam tanasida eng ko‘p ifloslanadigan joylar: qo‘l kafti, oyoq, yuz, quloq, anus va siydik-tanosil a‘zolari atrofidagi teri. Shuning uchun bu joylarni tez-tez yuvib turish kerak. Mikrobiologik tekshiruvlarga ko‘ra sog‘lom odamda 20-30 yoshgacha 45- 50% hollarda ko‘z shilliq qavati steril bo‘ladi. Bu tozalik a‘zoning anatomik- fiziologik xossalari bilan bog‘liq. Kon‘yuktiv mikroflorasiga, asosan, stafilokokklar, korinebakteriyalar, mikoplazma, adeno- va herpes viruslar kiradi. Bu mikroorganizmlar miqdori kam, ammo himoya omillarining susayishi, ko‘zning shikastlanishi hisobiga yiringliyallig‘lanish jarayonlari yuzaga kelishi mumkin. Normada ichki va o‘rta quloqda mikroblar bo‘lmaydi. Tashqi quloq yo‘lida yog‘ bezlari yaxshi rivojlangan, ular sekreti hisobiga quloqda kir yig‘iladi. Sog‘lom odamlar qulog‘ida ichak tayoqchasi, proteylar, nopatogen stafilokokk va korinebakteriyalar, achitqi zamburug‘lari uchraydi. Chaqaloq tug‘ilayotganda va birinchi marta nafas olishi bilan nafas yo‘llariga mikroblar tusha boshlaydi. Odam umri davomida nafas oladi, havo bilan birga burun bo‘shlig‘iga juda ko‘p narsalar kiradi, lekin shunga qaramay bronxlarning quyi qismi va o‘pka alveolalari steril hisoblanadi, chunki burun bo‘shlig‘ining anatomik-fiziologik xususiyatlari hisobiga mikroblar ushlab qolinadi va shilliq qavatining bakteritsid xususiyatiga ega moddalar ta‘sirida nobud bo‘ladi. Nafas yo‘llari mikroflorasi vakillariga stafilokokklar, streptokokklar, korinebakteriyalar, saprofit grammanfiy diplokokklar, peptokokklar



va boshqalar misol bo‘la oladi. Immun tizim faoliyatining susayishi natijasida nafas yo‘llaridagi shartli-patogen va patogen mikroblar har xil kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Odam va hayvon mikroflorasi ichida ovqat hazm qilish mikroflorasi juda katta o‘rinni egallaydi. Eng ko‘p mikroflora saqlaydigan bo‘limlar og‘iz bo‘shlig‘i va yo‘g‘on ichak hisoblanadi. Og‘iz bo‘shlig‘ida mikroorganizmlarning rivojlanishi uchun hamma qulay sharoitlar bor: doim bir xil namlik, doimiy harorat, ovqat qoldiqlari, ko‘chayotgan epiteliy. Bu erda doimiy yashaydigan mikroblarga turli kokklar, difteroidlar, vibrionlar, spiroxetalar, atsidofil tayoqchalar kiradi. Og‘iz bo‘shlig‘ida har xil mualliflar 70 turgacha har xil aerob va anaerob mikroorganizmlar topishgan.

Oshqozon-ichak yo‘llari me‘yordagi mikroflorasining miqdoriy va sifatiy buzilishi asosida shartli-patogen mikroblarning rivojlanishi disbakterioz deyiladi. Disbakterioz tartibsiz og‘iz orqali antibiotiklar qo‘llanilganda, ovqat tartibi buzilganda, nur bilan davolangandan so‘ng, kuyish kasalligida, xullas organizmning himoya mexanizmlari bo‘shashishi bilan boradigan kasalliklarda kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, inson organizmida zararli va foydali mikroorganizmlar yashab faoliyat ko‘rsatadi. Ularning vazifasi turlicha va ular asosan ovqat hazm qilish sistemasi a‘zolari: og‘iz, halqum, qizilo‘ngach, oshqozon va ichaklarda hamda nafas yo‘llarida uchraydi. Zararli mikroorganizmlardan o‘z tanamizni asrashimiz lozim. Buning uchun esa eng avvalo, shaxsiy gigiyena talablariga roiya qilishimiz lozim hamda tog‘ri ovqatlanish tartibiga rioya qilishimiz lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. «Mikrobiologicheskiy slovar-spravochnik». Krasilnikov A.P. Minsk. 1986 6.
2. Mikrobiologiya. Timakov V.D., Levashev, S. Borisov L.B. M., 1989 7.
3. «Mikrobiologiyadan laboratoriya mashg‘ulotlariga doir qo‘llanma» Borisov L.B. tahriri ostida Tarjimon Zokirov N.A. Toshkent 1992

## ESTETIK IDEAL VA IJODKOR POETIK KONSEPSIYASI (NAZAR ESHONQUL IJODI MISOLIDA)

**Payziyeva Nilufar Zokir Qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti I bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada estetik ideal masalasi Nazar Eshonqul ijodi misolida atroflicha o‘rganilgan. Tahlil uchun adibning “Tobut” hamda “Xaroba shahar surati” hikoyalari tanlangan.

**Kalit so‘zlar:** Estetik ideal, g‘oya, Nazar Eshonqul, hikoya, sobiq sho‘ro tuzumi, “Tobut”, “Xaroba shahar surati”, mafkura, shaxs erki.

Adabiyot so‘z san‘ati ekan, ushbu san‘atning vazifasi insonlarga go‘zallik ulashish, hayotni badiiy bo‘yoqlarda aks ettirish hamda estetik zavq bera olishdir. Ijodkor o‘z ongida tafakkur qilgan dunyosini, o‘y-xayollarini o‘quvchi ko‘z o‘ngida qayta voqelantirishga intiladi. “Estetik ideal – badiiy ijodga xos eng muhim tushunchalardan biri bo‘lib, u ijodkorning xohishi, istagi asosida yotuvchi narsa yoki shaxsning qanday darajada bo‘lishini anglatadi. Aniqroq qilib aytganda, obrazning yozuvchi tasavvuridagi ko‘rinishi, uning konkret namoyon bo‘lishi estetik ideal tushunchasining mohiyatini belgilaydi. Bunda voqelik tarixiy zaruriyat qonunlari asosidagina emas, balki go‘zallik qonuniyatlari nuqtayi nazaridan ham tasvirlanadi” Umuman olganda, estetik ideal tushunchasi bir masalaga turli yozuvchilarning turlicha yondoshishi, uslubi deb qaralsa ham bo‘ladi. O‘ziga xos uslubga, yo‘nalishga ega ijodkorlarimizdan biri Nazar Eshonquldir. Ushbu adib haqida gap ketsa, modernistik ijodkor sifatida tilga olinadi. Haqiqatan ham “Maymun yetaklagan odam”, “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Tobut” kabi hikoyalari zamonaviy jahon adabiyoti hikoyalari eslatadi. Quyida adibning o‘ziga xos estetik ideali aks etgan va bir- biriga bog‘liq bo‘lgan bir necha hikoyalari borasida so‘z yuritimiz.

tarbiyalash va boshqarish usullari yengishda katta ahamiyatga ega ekanligini chuqurroq tushuntirishi kerak.

Bo‘lajak musobaqaga psixologik tayyorgarlik. Kurashchilar ayni uchrashuvga o‘zi raqib harakatlarini aniqlab, musobaqaga tayyor bo‘lganda, ularni musobaqadan oldin chigalyozdi (razminka) qilganida o‘yin to‘g‘risida o‘ylash kerak emas.

Kurashchilarni bo‘lajak musobaqaga tayyorlayotgan trenerning asosiy vazifasi kurashchilarda musobaqaga chiqish oldidan ro‘y beradigan ortiqcha asabning taranglashishini kamaytirish, ularda o‘z kuchiga ishonch jangovar holatini hosil qilishdan iborat. Trener ulardan kerakligini tanlab ishlatishi mumkin. Bo‘lajak bellashuvga nafaqat trener, balki sportchining o‘zini-o‘zi ishontirishi lozim. Buning uchun bellashuv oldidan quyidagi usullarni ishlatishni o‘rganib olishi kerak. Bular: o‘z-o‘ziga ta’sir etish, o‘z- o‘zini ishontirish, o‘z-o‘ziga dalda berish, o‘z-o‘ziga buyruq berish va hokazolardan iborat. Bellashuv oldidan, ayniqsa, ortiqcha qo‘zg‘alib ketadigan, muvozanatsiz kurashchilar uchun autogen mashg‘ulotlar yaxshi yordam

beradi. Bo‘limlar orasidagi dam olish vaqtida kurashchini psixologik tayyorlash, bellashuv vaqtida kurashchini psixologik tayyorlashda trenerning to‘g‘ri nasihatlari katta o‘rin tutadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, kurashchining irodasini u yoki bu harakatga safarbar etish uchun kurashchining o‘ziga xos bo‘lgan, fel-atvori va xarakterlariga ta’sir etish, orqali muhim motivasion iboralarni ishlatishi ham mumkin.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maxoratli sport kurashchini tayyorlash uchun avvalo iqtidor va qobiliyatli yoshlarni tanlash va sportga yo‘naltirish lozim. Bunda bolaning ijtimoiy kelib chiqishiga emas, balki iqtidoriga, qiziqishiga ham alohida xaqiqiy mutaxassis sifatida nazariy yondashish maqsadga muvofiq bo‘ladi xamda sportchilar bilan har xil miqyosdagi musobaqalarda ishlash tajribasi shuni ko‘rsatdiki, maqsadga erishish vositalarga urg‘u berish bilan birga, sportchining ong ostiga xam ta’sir qilish orqali yuqori natijaga erishiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gapparov Z.G. Yakka kurashchilarni psixologik tayyorlash .O‘quv qo‘llanma T: 2010
2. Волков В.М., Филин В.П. Спортивный отбор. – М.: Физкультура и спорт, 1983г.
3. G‘oziyev E. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – T: «O‘qituvchi»,1992.





## KRUPOZ PNEVMONIYADA MOYIL SHAROITLAR PROFILAKTIKASI

**Rustamov Nurmuhammad**

Toshkent tibbiyot akademiyasi 3-bosqich talabasi

**Qudratova Shohista**

Toshkent tibbiyot akademiyasi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Krupoz pnevmoniyani qo‘zg‘atuvchi infeksiyon agentlarga qarshi organizm himoya reaksiyalarining susayishiga sabab bo‘luvchi moyil sharoitlar bo‘lgan organizm hujayraviy va gumoral immun qobiliyatining pasayishi, uzoq vaqt sovuq qotish, bosh miya va ko‘krak qafasi shikastlanishi, alkogol va tamaki chekishni muntazam suviste‘mol qilish, noratsional ovqatlanish, organizmni energiya bilan ta‘minlovchi alimantar omillar tarkibining sifat ko‘rsatkichlariga javob bermasligi, mikronutriyentlar taqchilligi, organizmni infeksiyaga sezuvchanligini oshishi kabilar kasallik rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shundan kelib chiqib mazkur moyil sharoitlar profilaktikasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali kasallik epidemiologiyasida sezilarli ijobiy o‘zgarish yasash mumkin.

**Kalit so‘zlar:** plevropnevmonit, asoratli va asoratsiz krupoz pnevmoniya, Fridlender diplobatsillasi, Pfyfer tayoqchalari, giperemiya, fibrinsimon quyqa, proteolitik fermentlar, “jigarlanish” protsessi, boshlang‘ich krepitatsiya, areaktivli(astenik) pnevmoniya, og‘izsimon sil pnevmoniyasi.

Krupoz pnevmoniya o‘pkaning butun bo‘lagi yoki uning 1-2 segmenti zararlanishi, sikl bilan kechishi va jarayonga o‘pkani o‘rab turgan plevra varaqalarining tortilishi(plevropnevmonit), hamda o‘pka alveolalari va mayda bronxlar sathini qoplovchi fibrinli ekssudat rivojlanishi bilan kuzatiladigan kasallik. Epidemiologik jihatdan kasallikning tarqalganligi umumiy kasallanish strukturasi 1.7-2.3 % va bu 30-40 % hollarda cho‘ziluvchan kechadi. O‘lim bilan yakunlanishi

asoratsiz pnevmoniyada – 2-5 %, asoratli pnevmoniyada – 10-30 % ni tashkil qiladi. Xastalik etiologiyasida shartli ravishda ikki xil omillar, asosiy etiologik faktorlar va organizmdagi ma’lum moyil sharoitlar farqlanadi va ular bir-birini to‘ldirib kelgan holdagina kasallik rivojlanadi. Infeksion omillar qatoriga pnevmokokklar, streptokokklar, stafilokokklar, Fridlender diplobatsillasi, Pfeyfer tayoqchalari, viruslar va boshqa qo‘zg‘atuvchilar kiradi. Moyil sharoitlar qatoriga esa organizmni kasallikka qarshi kurashish qobiliyatini susayishi, uzoq vaqt sovuq qotish, bosh miya va ko‘krak qafasi shikastlanishi, alkogol va tamaki chekishni muntazam suviste’mol qilish, noratsional ovqatlanish, organizmni energiya bilan ta’minlovchi alimantar omillar tarkibining sifat ko‘rsatkichlariga javob bermasligi, mikronutriyentlar taqchilligi, organizmni infeksiyaga sezuvchanligini oshishi kabilar kiradi.

Krupoz pnevmoniyada o‘pka to‘qimasida 4 bosqich o‘zgarishlar aniqlanadi:

- Quyilish bosqichi: o‘pka to‘qimasida qizarish(giperemiya), yallig‘lanish shishi kuzatilib, alveolalar tarkibida eritrotsitar, leykotsitar, mikroblar va fibrin tolalari bo‘lgan suyuq serozli ekssudat yig‘iladi. Bu bosqich 12 soatdan 3 kungacha davom etadi.
- Qizil jigarlanish bosqichi: ekssudat tarkibidagi fibrinlar zichlanishi, ko‘p miqdorda eritrotsitlar, kamroq leykotsitlar to‘planishi bilan ifodalanadi. O‘pka hajmi kattalashadi, jigarga o‘xshash qattiqlashadi. Davomiyligi 1-3 kun.
- Kulrang jigarlanish bosqichi: ekssudat tarkibida eritrotsitlar yo‘qolishi va uning o‘rniga leykotsit va fibrin tolalari to‘planadi, bu holat o‘pka to‘qimasiga kulrang tus beradi. O‘pkaning yallig‘lanish qismi qattiqlashgan, kattalashgan. Davomiyligi 2-4 kun.
- So‘rilish bosqichi: proteolitik fermentlar ta’sirida fibrin ipchalarining erishi va so‘rilishi, leykotsitlar parchalanishi kuzatiladi, natijada ekssudat so‘rila boshlaydi. Mazkur bosqich boshqalariga nisbatan ancha uzoq vaqt davom etishi mumkin, uning davomiyligi yallig‘lanish jarayonining hajmiga, organizmning qarshilik kuchiga bog‘liq.

O'pka zararlanishi bilan bir vaqtda plevra varaqalari sathida fibrinsimon quyqa yig'ilishi bilan kuzatiladigan plevra o'zgarishi vujudga keladi. Kasallik to'satdan o'tkir boshlanadi. Qo'zg'atuvchi omillar o'pka to'qimasiga bronx, qon va limfa yo'llaridan kiradi. Aksariyat mikroorganizmlar bronx orqali o'pka ildizi sohasidan o'pkaga kiradi va limfa tomirlariga o'tib, oldin oraliq to'qimalarda, so'ngra alveolalararo to'siqlarda yallig'lanish jarayonini hosil qiladi. Bu yerdan infeksiya alveolalar bo'shlig'iga tushadi va fibrinli ekssudatni vujudga keltiradi. Natijada o'pka zichlashadi, qattiqlashadi., havosizlanadi va uning jigarlanishi sodir bo'ladi. Bu davrda ko'p miqdorda virulent mikroblar shikastlangan o'pkada yig'iladi, balg'am bilan tashqariga chiqadi, qonga o'tadi, shu bilan bir vaqtda antitanalar vujudga keladi. Antitanalar titri ma'lum darajaga yetganda, mikroblar nobud bo'la boshlaydi. O'pka to'qimasidan proteolitik fermentlarning ajralib chiqishi va fibrinli ekssudatning so'rilishi kuchayadi.

Xastalik qaltirash va tana haroratining ko'tarilishi(39-40 C gacha), xansirash bilan kuzatiladi. Bemorda yuz terisi, lunj sohasida simpatik nerv shikastlanishi hisobiga qizarish, burun va lab burmalarida uchuq toshmalari mavjudligi kuzatiladi. Bemor og'riqni kamaytirish uchun ko'pincha shikastlangan tomonga qarab yotadi. Bu holat patologik jarayonga plevraning jalb etilishi bilan izohlanadi. Bemorning nafas olishi tezlashadi, nafas yuzaki bo'ladi, chunki chuqur nafas olganda og'riq zo'rayadi.

Kasallik 3 ta klinik bosqichda kechadi:

**a)** Xastalikning boshlang'ich davri: patanatomiyada quyilish davriga to'g'ri keladi va quyidagi protsesslar kuzatiladi:

- Paypaslanganda ovoz titrashining kuchayishi;
- Perkussiyada bo'g'i qroq tempanik tovush eshitilishi;
- Auskultatsiyada o'pka to'qimasi elastikligi va alveola devorlarini taranglashishining pasayishi hamda alveolalar ichida yallig'lanish ekssudati to'planishi tufayli vezikulyar nafasning susayishi;
- Nafas olish cho'qqisidan boshlang'ich krepatatsiya sodir bo'ladi;

– Plevra varaqalarining ishqalanish shovqini eshitiladi.

**b)** Kasallikning avj olgan davri: patanatomiyada qizil va kulrang jigarlanish bosqichlariga to‘g‘ri keladi, bunda quyidagi o‘zgarishlar kuzatiladi:

1. Paypaslanganda o‘pkaning zararlangan sohasida tovush titrashi kuchayadi;

2. Perkussiyada bo‘g‘iq tovush ifodalangan(yalpoqlangan);

3. Auskultatsiyada o‘pka to‘qimasi zichlashganligini ko‘rsatuvchi bronx nafasi eshitiladi;

**c)** Tuzalish davri: patanatomiyada so‘rilish bosqichiga to‘g‘ri keladi, bunda eksudat suyuqlasha boshlashi bilan alveolalarga havo kirishi natijasida quyidagi o‘zgarishlar kuzatiladi:

– Paypaslanganda tovush titrashi me‘yoriga keladi;

– Perkussiyada bo‘g‘iq tovush pasayib, bilinar-bilinmas timpanik ohangda, yallig‘lanish butunlay so‘rilib ketganda o‘pka tovushi eshitiladi;

– Auskultatsiyada bronx nafasi susayadi va keyinchalik yo‘qoladi, oxirgi dag‘al krepatatsiya paydo o‘ladi va u ham oxir oqibat yo‘qoladi, eksudat so‘rilishi natijasida mayda pufakchali jarangli nam xirillashlar eshitiladi.

Krupoz pnevmoniya asoratlari sifatida o‘pka absessi va gangrenasi, o‘pka shishi, o‘tkir tomir va yurak yetishmovchiligi, markaziy pnevmoniya, areaktivli(astenik) pnevmoniya, daydi pnevmoniya kabilar yuzaga keladi. Krupoz pnevmoniya o‘tkir bronxit, qaytalangan surunkali bronxit, o‘choqli pnevmoniya, eksudatli pleurit, og‘izsimon sil pnevmoniyasi, o‘pka absessi va infarkti bilan qiyosiy tashxis qilinadi.

Sog‘liqni saqlash tizimida eng dolzarb muammolardan biri nafas a‘zolari kasalliklarini davolash jarayonini va dori vositalari bilan ta‘minlashni to‘g‘ri tashkil qilishdir. Hozirgi kunda bu kasalliklar qatoriga oid pnevmoniya kasalligi yurak-qon tomir kasalliklari va o‘pkaning surunkali obstruktiv kasalliklaridan keyin butun jahon miqyosida o‘lim ko‘rsatkichi bo‘yicha 4-5 o‘rinni egallaydi. Pnevmoniya bilan kasallanish hollari har 1000 aholi soniga 3,6 dan 16 tagacha to‘g‘ri keladi. AQSHda har yili 3-4 mln kishi pnevmoniya bilan og‘rib o‘tadi va bularning 50-70 % qismi



ambulatoriyada davolanadi. Yoshi 60 dan oshgan kishilar guruhida pnevmoniya bilan og‘rish hollari har 1000 nafar aholi hisobidan olinganda yiliga 20 dan 44 tagacha yetadi, o‘lim esa 10-33% ni tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining statistik ma‘lumotlariga qaraganda so‘nggi yillarda respublikada pnevmoniya bilan kasallangan bemorlar soni har 100 000 aholiga nisbatan 757 dan 893 gacha ortgan va o‘lim ko‘rsatkichi 30,7 % ni tashkil qiladi. Bu o‘z navbatida kasallik profilaktikasi dolzarb masalalardan biri ekanligini ko‘rsatadi, negaki kasallik qo‘zg‘atuvchi infeksiyon faktorlarning aksariyati organizmda tabiiy holda doimiy mavjud bo‘lgan shartli patogen mikroorganizmlar bo‘lib, ularni qo‘zg‘alishi bevosita moyil sharoitlar asnosida kechadi. Shuningdek, kasallik oldi olinsa xastalikka chalinganlarning ko‘p qismi ambulator davo uchun sarflaydigan moddiy mablag‘i ham ijtimoiy hayot tarzini yaxshilashga qaratilgan boshqa yo‘nalishlarga jalb etiladi. Agar mikroorganizmlar faollashib, xastalikni paydo qilishiga sabab bo‘luvchi moyil sharoitlar oldi olinsa, kasallik epidemiologiyasida ijobiy siljish yasash mumkin. Bunda quyidagi profilaktik chora-tadbirlar o‘tkazilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Uy-joylar va ishlab chiqarish obyektlarining maishiy xonalari qo‘yiladigan gigiyenik talab va me‘yorlarga amal qilish;
2. Ratsional ovqatlanish tartibini to‘g‘ri va muntazamligini ta‘minlash. Bunda ozuqa mahsulotlarining mikronutriyentlar tarkibi, undagi oqsil, yog‘, uglevodlar nisbatini muvofiqligiga qat‘iy talab qo‘yish;
3. Jismoniy faollik, kun tartibi normalariga muvofiq sog‘lom turmush tarzini tashkil etish;
4. Kasbiy xavf, ifloslantiruvchi omillarning organizmga ta‘sirini kamaytirish yoki butunlay yo‘qotish;
5. Organizmning infeksiyon agentlarga nisbatan sensibilizatsiyasi oshib ketishini oldini olish.

Xulosa qilib aytganda, kasallikning organizm funksional faoliyati va salomatlik holatiga ko‘rsatadigan salbiy ta‘siri, remissiya davridan so‘ng kuzatilishi mumkin bo‘lgan og‘ir asoratlar, davolash muolajalari uchun ketadigan moddiy chiqimlarni

kamaytirish, epidemiologik vaziyatni yaxshilash maqsadida yuqorida ta’kidlangan chora-tadbirlar amaliy tarzda yo‘lga qo‘yilsa kasallik ustidan kurashda g‘alaba qilish mumkin bo‘ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Легкие // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона;
2. Джон Барри. Испанка. История самой смертоносной пандемии = John M. Barry. The Great Influenza: The Story of the Deadliest Pandemic in History / пер. Александр Анваер. — М.: Альпина Паблицер;
3. Chapter 8 Pneumonia of Viral Etiologies / Al Johani Sameera ; Akhter Javed // Contemporary Topics of Pneumonia : [англ.] : [арх. 26 июля 2020] / Zissis Chronos. — 2017. — 20 December. — doi:10.5772/intechopen.71608.
4. Grant Mackenzie. The definition and classification of pneumonia : [англ.] : [арх. 6 августа 2020] // Pneumonia (Nathan Qld.). — 2016. — Vol. 8, no. 14 (22 August). — ISSN 2200-6133.
5. Mackenzie G. The definition and classification of pneumonia. Pneumonia (Nathan).
6. Mandell LA, Wunderink RG, Anzueto A, Bartlett JG, Campbell GD, Dean NC, Dowell SF, File TM, Musher DM, Niederman MS, Torres A, Whitney CG., Infectious Diseases Society of America. American Thoracic Society. Infectious Diseases Society of America/American Thoracic Society consensus guidelines on the management of community-acquired pneumonia in adults.

## **BOLALAR O‘YINCHOQLARI TAYYORLASHDA FOYDALANILADIGAN MATERIALLARGA QO‘YILADIGAN GIGIYENIK TALABLAR**

**Suyundikova Zilola Bahrom qizi**

Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-bosqich talabasi

**Anvarova E‘zoza Yanvar qizi**

Toshkent tibbiyot akademiyasi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Bolalarning hayotiy faoliyati va tarbiyasida muhim o‘rin tutgan o‘yinchoqlarning bola idrokini rivojlantirishdagi ahamiyati, salomatlik holatiga ta‘siri, ularning turi, sifati, xavfsizligi singari qator jihatlari bevosita o‘yinchoqlar tayyorlanadigan xomashyo, materiallarga bog‘liq bo‘ladi. Shundan kelib chiqib o‘yinchoqlar tayyorlanadigan materiallarga qo‘yiladigan gigiyenik talablar doirasida ishlab chiqarish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish uchun avvalo mazkur talablardan atroflicha boxabar bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

**Kalit so‘zlar:** organoleptik ko‘rsatkichlar, akustik detsibel, geometrik oktavalor, tabiiy radionuklidlar, solishtirma samaradorlik darajasi, ekvivalentlik darajasi, impulsli tovush, sanitariya qoida va normalari N°0354-18, to‘yinganlikning ruhsat etilgan me‘yori, migratsiya ruhsat etiluvchi miqdori.

Bolalar o‘yinchoqlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan mahsulot, xomashyo va materiallarning fizik, kimyoviy, biologik, texnik, toksikologik, radiatsion xususiyatlari bolalar hayoti va faoliyatida ajralmas o‘rin tutadi.

Bolalar o‘yinchoqlarining gigiyenik xavfsizligiga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. Organoleptik ko‘rsatkichlar (hidi, yoqimsiz ta‘mi);
2. Fizik omillar (tovush darajasi, elektro statik maydon kuchlanganligining darajasi, elektr magnit maydon kuchlanganligining darajasi, radiochastota diapazoni,

elektr magnit maydon kuchlanganligi darajasi, infraqizil nurlanish integral oqimining intensivlik darajasi, mahalliy titrash darajasi, tabiiy radionuklidlarning aktivligi solishtirma samaradorligi);

3. Sanitar-kimyoviy ko'rsatkichlar (namuna muhitida zararli kimyoviy moddalar tarqalishi, matriallar kimyovi tarkibini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan ro'yxat va bolalar o'yinchog'idan ajralib chiqadigan zararli kimyoviy moddalar me'yor);

4. Toksikologik-gigiyenik ko'rsatkichlar (shilliq qatlamda qichishish hosil qilishi, toksiklik ko'rsatkichi);

5. Bolalar o'yinchoqlari tarkibida bo'lishi taqiqlangan va konsentratsiyasi bolalar o'yinchog'ida yoki uning tarkibiy qismlarida 100 mg/kg dan oshsa, bolalar o'yinchoqlarining tamg'alarida ko'rsatilishi lozim bo'lgan allergiya chaqiruvchi aromatizatorlar ro'yxati;

6. Mikrobiologik ko'rsatkichlar.

Yuqoridagi ko'rsatkichlarni alohida holatda ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunda:

4. Organoleptik ko'rsatkichlar: tabiiy sharoitda va suvli muhitda bolalar o'yinchog'i hidi intensivligi:

a) 1 yoshgacha bo'lgan bolalarga mo'ljallangan o'yinchoqlarda 1 balldan oshmasligi kerak;

b) 1 yoshdan katta bo'lgan bolalar uchun bu ko'rsatkich 2 balldan oshmasligi kerak;

c) suvli muhitda hidining namunaviy intensivligi 3 yoshdan katta bolalar uchun bolalar o'yinchoqlarida 2 balldan oshmasligi kerak;

d) 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan o'yinchoqlarda va og'iz bo'shlig'i bilan to'g'ridan to'g'ri aloqada bo'luvchi bolalar o'yinchoqlarida hosil bo'ladigan yoqimsiz ta'mning intensivligi 1 balldan oshmasligi kerak.

b) Fizik omillar:

1. ovoz chiqaruvchi bolalar o'yinchoqlarining tovushlari ekvivalentlik darajasi (sport o'yinlari modellaridan tashqari) quyidagi qiymatlarga teng bo'lishi



talab etiladi: 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun — 60 dBA (dBA — akustik detsibel); 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun — 65 dBA dan yuqori bo‘lmasligi kerak; 6 yoshdan katta bolalar uchun — 70 dBA dan yuqori bo‘lmasligi kerak;

2. impulsi tovush chiqaruvchi bolalar o‘yinchoqlaridan boshqa ochiq havoda o‘ynaladigan bolalar o‘yinchoqlari tovushining ekvivalentlik darajasi 75 dBA dan yuqori bo‘lmasligi kerak;

3. bolalar o‘yinchoqlari tovushining eng yuqori darajasi quyida keltirilgan ko‘rsatkichlarga muvofiq bo‘lishi kerak: 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun — 70 dBA dan yuqori bo‘lmasligi; 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun — 75 dBA dan yuqori bo‘lmasligi; 6 yoshdan katta bolalar uchun — 80 dBA dan yuqori bo‘lmasligi; ochiq havoda o‘ynaladigan bolalar o‘yinchoqlari tovushning

4. eng yuqori darajasi 85 dBA dan yuqori bo‘lmasligi kerak; impulsi tovush chiqaruvchi bolalar o‘yinchoqlarining eng yuqori tovush chiqarish darajasi 90 dBA dan oshmasligi kerak;

5. bolalar o‘yinchoqlari yuzasidagi elektr statik maydon kuchlanganligi darajasi 15 kV/m dan oshmasligi kerak;

6. radio boshqaruvli, elektron va elektrotexnik bolalar o‘yinchoqlari tarqatadigan elektr magnit maydonlarining kuchlanganlik darajasi, chastota oralig‘i: 0,3 kHz dan 300 kHz gacha oraliqda o‘zgarganda 25 V/m dan; 0,3 MHz dan 3 MHz gacha oraliqda o‘zgarganda 15 V/m dan; 3 MHz dan 30 MHz gacha oraliqda o‘zgarganda 10 V/m dan; 30 MHz dan 300 MHz gacha oraliqda o‘zgarganda 3V/m dan; 0,3 dan 300 GHz gacha oraliqda o‘zgarganda 10  $\mu$ W/cm<sup>2</sup> dan oshmasligi kerak.

7. bolalar o‘yinchoq‘ida sanoat chastotali (50 Hz) elektr toki hosil qiladigan maydonning kuchlanganlik darajasi 0,5 kV/m dan oshmasligi kerak;

8. infraqizil nurlanish integral oqimining intensivlik darajasi 100 W/m<sup>2</sup> dan oshmasligi kerak;

9. tebranish manbaiga ega bo‘lgan o‘yinchoqlarda o‘rtacha geometrik oktavalor oralig‘idagi 8 Hz va 16 Hz chastotalar uchun mahalliy tebranish darajasi 63

dB dan oshmasligi kerak, 69 dB bo‘lganda — 31,5 Hz, 75 dB bo‘lganda — 63 Hz, 81 dB bo‘lganda — 125 Hz, 87 dB bo‘lganda — 250 Hz, 93 dB bo‘lganda — 500 Hz, 99 dB bo‘lganda — 1000 Hz chastotalarga ega bo‘ladi. Tebranish tezlanishining to‘g‘rilangan darajasi 66 dB dan oshmasligi kerak;

10. tabiiy materiallardagi tabiiy radionuklidlarning va bolalarning ijodiy o‘yinlarining jamlanmalari tarkibiga kiruvchi, ulardan tayyorlangan mahsulotlarning solishtirma samaradorlik darajasi 370 Bq/kg dan oshmasligi kerak.

O‘yinchoqlar ishlab chiqarishda o‘yinchoqlar tayyorlash uchun ruhsat etilgan xomashyo, materiallar ro‘yxatiga kiritilgan yoki gigiyenik baholashdan o‘tgan va tegishli qonun-qoidalarga binoan tasdiqlangan polimer materiallar: polistirol, polietilen, polipropilen, PXV, dakril, sevilen, viniliskoja, ftorolon va boshqalar, polimer plyonkalar: polivinilxloridli, polietilenli, polietilenpoliamidli, sellofan va boshqalar, rezina, kauchuk, shuningdek loklar, bo‘yoqlar, emallar kabilar ishlatiladi.

O‘yinchoqlar ishlab chiqarishda materiallarning sanoat chiqindilaridan(ikkilamchi qayta ishlash) foydalanishga ruhsat beriladi. Bolalar o‘yinchoqlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilmagan korxonalaridan keladigan sanoat chiqindilaridan faqat sanitariya-epidemiologiya xizmati tashkilotlari bilan maslahatlashilgan holda foydalanishga ruhsat etiladi. O‘yinchoqlarni tayyorlashda chiqindi latta-puttalar, tabiiy mo‘yna va charm (3 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan o‘yinchoqlarda) parchalari, daraxt po‘stlog‘idan foydalanish man etiladi. Bolalarning labiga tegib turuvchi puflab chalinadigan musiqiy o‘yinchoqlar va shiqildoqlar namlikni shimmaydigan, oson dezinfeksiyalanadigan materiallardan tayyorlanishi lozim.

O‘yinchoqlar tarkibida og‘ir materiallar(bariy, kadmiy, xrom, qo‘rg‘oshin, simob, selen)ning mavjud bo‘lishi gigiyena talablariga muvofiqlanadi. O‘yinchoqlardan monomerlar, plastifikatorlar, rezinaning murakkab birikmalari ajralib chiqmasligi va ularning mahsulotlari oziq-ovqat mahsulotlari bilan aloqada bo‘luvchi buyumlar uchun yil qo‘yiluvchi migratsiya miqdori yoki atmosfera havosi

uchun TREM(to‘yinganlikning ruhsat etilgan me‘yori) dan oshib ketuvchi to‘yinmalarga aylanmasligi lozim. O‘yinchoqlarga qo‘yiladigan gigiyenik talablar sanitariya qoida va normalari N°0354-18 ga muvofiq baholanadi. Mazkur qonuniy hujjat talablariga nomuvofiq o‘yinchoqlarni ishlab chiqarish, aholi orasida tarqatish, sotish qat‘iy man etiladi. Agar bolalar o‘yinchog‘i gigenik xavfsizlikka tekshirilayotganida nazorat qilinadigan birorta ko‘rsatkichi mos kelmasligi tasdiqlangan taqdirda, bolalar o‘yinchog‘i bo‘yicha bundan keyingi har qanday tadqiqotlar to‘xtatiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi. Prof.G.I.Shayxova tomonidan tahrir qilingan.-Toshkent, 2004.
2. Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi amaliy mashg‘ulotlari uchun uslubiy qo‘llanma (1-2 qismlar)-Toshkent, 1991, 1992.
3. Gigiyena. Prof.Demidenko tahriri ostida.
4. Ismoilov.M.N Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi. Ibn Sino nashriyoti-Toshkent, 1994.
5. Kardashenko.V.N Rukovodstvo k labaratornim zanyatiyam po gigiyene detey i podrostkov. -M.: 《Meditsina》 , 1998.
6. Komilga.R.T Unifitsirovannaya metodika issledovaniya otsenki fizicheskogo razvitiya detey i podrostkov. T.1998.

## DAS KULTURELLE ERBE USBEKISTANS IM FOKUS

**Musayeva Sugdiyona Faxriddin qizi**

Staatliche Universität Karschi, Usbekistan

**Annotation:** Es geht den Artikel um das kulturelle Erbe Usbekistans im Fokus.

**Stichwörter:** die Kultur, die Erforschung, der Koran von Grosser Langar.

**Annotation:** The article is about the cultural heritage of Uzbekistan in focus.

**Keywords:** the kulture, the exploration, the Koran of great Langar.

In Usbekistan fand in den Städten Taschkent, Termez, Buchara und Samarkand die Woche des kulturellen Erbes "Usbekistan der Schnittpunkt großer Wege und Kulturen: Reich, Religion, Kultur" statt. Im Rahmen dieser Kulturwoche, an der Fachleute aus verschiedenen Teilen der Welt teilnahmen, wurden Fragen der Erforschung und Erhaltung des seit der Antike bestehenden Kulturerbes Usbekistans erörtert.

In einer Reihe von Veranstaltungen fand auch der III. Internationale Kongress der Weltgesellschaft für die Studien, die Erhaltung und Förderung usbekischen Erbes in der Hauptstadt Tashkent statt. Während des Kongresses wurde ein 20-bändiger Bildband über das Erbe Usbekistans vorgestellt. Das Bildband enthält die Weltsammlungen. Die Besonderheit dieses Bildbandes besteht darin, dass der Leser sich durch das Scannen von Barcodes detailliertes Videomaterial zu Objekten des kulturellen Erbes anzeigen lassen kann. Auf dem Kongress feierten auch die Filme „Auf den Spuren Baburs und der Prinzessinnen der Baburiden“ sowie, - „Der Koran von Grosser Langar: Geheimnisse und Wahrheit“ Premiere. Die Ausstellung „Der Schatz von Kushan“ fand in der Galerie der schönen Künste



Usbekistans statt, und die Ausstellung „Manuskripterbe Usbekistans“ fand im Institut für Orientalistik der Akademie der Wissenschaften statt. Im Rahmen dieser Ausstellungen wurden einige unschätzbar wertvolle Kunstwerke erstmals der Öffentlichkeit präsentiert.

Das kulturelle Erbe Usbekistans im Fokus wurde in Termez fortgesetzt, wo eine Konferenz zum Thema "Usbekistan der Scheideweg der Zivilisationen" stattfand. Auf der Konferenz stellten Vertreter der wissenschaftlichen Gemeinschaft und der Medien Beweise dafür vor, dass sich Alexandria Oxianskaya an der Stelle der Siedlung Kampirtepa befindet, die in den Manuskripten des antiken griechischen Historikers und Geographen Ptolemäus eingezeichnet ist und ein einzigartiges Denkmal der hellenischen Kultur in Zentralasien darstellt. Die Wissenschaftler enthüllten den Bewohnern neue Erkenntnisse über Alexandria Oxian, die sie während der Erforschung der antiken Stadt Kampirtep unter Anleitung des Akademikers Edward Rtveladze ansammeln konnte.

Archäologen suchen seit vielen Jahren nach dieser legendären verlorenen Stadt.

Die in den Schriften des antiken Historikers Ptolemäus beschriebene Lokalisierung von Alexandria Oxian ist Wissenschaftlern und Archäologen seit vielen Jahren ein Rätsel. Beliebte Theorien meinten den möglichen Standort der hellenistischen Stadt in der alten Siedlung Termez am Amudarya (in der Antike Oxus genannt) in Surkhandarya und in Ai-Khanum in Afghanistan zu erkennen.

Aller Wahrscheinlichkeit nach handelt es sich bei Kampirtepa um die legendäre Stadt Alexandria Oxian, die Ptolemäus erwähnt. So schrieb der Wissenschaftler Edward Rtveladze, der die Siedlung Kampirtepa 1972 und die Umgebung archäologischer Stätten im Tales des Amudarya zu erforschen begann. Zunächst lokalisierten Wissenschaftler die Siedlung Pandahiyon am Ort der Befestigung. Spätere Studien erlaubten es dem Akademiker Rtveladze, diesen Ort überzeugend als Alexandria Oxianskaya zu identifizieren. Wissenschaftler nehmen an, dass 800 bis 900 Menschen in Alexandria am Amudarya lebten. Die ummauerte

Stadt besteht aus einer Zitadelle und einer Innenstadt. Sie wurde mit einer Verteidigungsmauer, Türmen und einem tiefen Burggraben befestigt. In Alexandria gab es ausserdem einen ausserdem Hafen. Bei der Ausgrabung wurden hier Münzen von Seleukiden, Greco-Bakerianern und Kushan sowie Kunstgegenstände gefunden. Von besonderem Interesse sind die in der Stadt gefundenen Proben von altgriechischen, baktrischen und altindischen Inschriften. Die Teilnehmer der Veranstaltung lernten alte Befestigungsanlagen, Ausgrabungsstätten und historische Werte der Region Surkhandarya kennen. Das Pilgerkloster Qora-Tepa bei Termez ist eines der bekanntesten Zeitzeugen für den Buddhismus. Dank den intensiven Foerderungen der buddhistischen Kulte wurde dieser Tempel ab dem I. Jahrhundert regelmässig besiedelt und der Buddhismus stieg im Kuschan-Reich relativ schnell zur Staatsreligion auf. Einen deutlichen Aufschwung erlebte der Qora-Tepa Tempel zwischen dem II.-III. Jahrhundert, als der Komplex mit Hoelenkatakomben fertiggebaut war. Das gesamte Intereuer vom Tempel wurde mit bunten Wandmalereien ausgemalt und die Räume mit verschiedenen Statuen ausgeschmückt. Im IV. Jahrhundert infolge der Niederschlagung des Kuschan Reichs von Sasaniden musste der Buddhismus seine Position als dominanter Kult aufgeben und der Qora-Tepa Tempel geriet langsam in Bedeutungslosigkeit.

In letzten Jahren hat man an den historischen Meisterwerken islamischer Architektur von Samarkand: im Gur-Emir, Registan und Schahi-Zinda die grundsätzlichen Restaurations- und Rekonstruktionsarbeiten durchgeführt. Somit wurde die Phase von kontinuierlicher Bebauung und Wiederaufbau begonnen, die folgerichtig die architektonischen Kunstschatze in diesen Städten einbezogen haben: In Chiwa das gesamte Freilichtmuseum – Itschan Kale; in Buchara – Kalon – Moschee, Nakschbandiy Kloster, Tschor – Bakr Nekropole; in Schahrisabz – Ak – Saray, Kok – Gumbaz Moschee, Dorus Saodat etc. Heutzutage sind solche wie die oben aufgezählten Bauwerke als absolute «High-lights» in jeglichem Tour-Programm

inbegriffen und machen jede eine Usbekistanreise zweifellos zum unvergesslichen Erlebnis von abertausenden Gästen.

### **Literaturquellen:**

1. G. Astashova. Freundschaftsgesellschaft «Das kulturell – historische Erbe der Voelker des Landes und die moderne Entwicklung». Taschkent. 2016.
2. M.Rekk.V.Ivonin. Die Usbekistan-Deutschen im Kulturdialog. Taschkent. Verlag „Norma“. 2002.
3. Ch.Günther., M. Hussner., M. Klingenberg., R. Krumm., W.Lapins., Kh. Inomjonov. Geschichte und Identität III: Geschichtsvermittlung in Usbekistan und Deutschland. Toshkent. Verlag „Fan“. 2008.



**MAHALLIY XOMASHYOLAR ASOSIDA OLINGAN OG‘IR BETONNING  
EKSPLUATATSION XOSSALARINI KIMYOVIY QO‘SHIMCHALAR  
YORDAMIDA OSHIRISH**

**Magistrant Sabirov Furxat Orazimbetovich,**

**Ne‘matov Sardor Solijon o‘g‘li**

Toshkent arxitektura-qurilish instituti.

Qurilish materiallari, buyumlari, konstruktsiyalari va ularni ishlab chiqarish texnologiyasi yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

E-mail: [sabirovfurxat@gmail.com](mailto:sabirovfurxat@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolani yozishimizdan maqsad qurilishda asosiy material hisoblangan beton ya’ni og‘ir betonlarning ekspluatatsion xossalarini(suv o‘tkazuvchanlik, tuzli muhitga qarshiligi...) qo‘shimcha qo‘shish yordamida oshirish.

**Tayanch so‘zlar:** Og‘ir beton, kimyoviy qo‘shimchalar, ekspluatatsion xossa, modifikatsiya, sho‘rlanish darajasi, zichlik, korroziya, struktura.

**Abstract:** The purpose of writing this article is to increase the performance properties of concrete, which is the main material in construction, ie heavy concrete (water permeability, resistance to saline environments...) with the addition of additives.

**Key words:** Heavy concrete, chemical additives, exploitative property, modification, salinity, density, corrosion, structure.

Qoraqalpoqiston Respublikasi sharoitida tuzli muhit ta’siri kuchli bo‘lgani bois beton korroziyasi ya’ni ichki kapillarlarda tuz hajmining kengayishi(o‘shishi) sababli betonning korroziyaga uchrashiga qarshiligini oshirish dolzarbdir.

Mamlakatimizdagi bazi hududlarning ekologik vaziyati yomonlashuvi bilan bog‘liq ravishda beton va temirbeton konstruksiyalarining ekspluatatsion tavsiflarini yaxshilash tobora dolzarb tus olob bormoqda. Og‘ir betonlarning yemirilish



sabablaridan biri – namlik va shu mintaqa uchun xos bo‘lgan tuz aralashmalari ta’siridan iborat. Betonning kapillyar g‘ovakli tuzilmasida yuz beradigan suvga to‘yinish jarayoni, manfiy haroratlarda uni ichki qismidan yemirish bilan birga, ayrim komponentlarini yuvilishiga (ko‘chishiga) olib keladi. Beton tuzilmasini faol mineral to‘ldiruvchilar va superplastifikatorlar hisobiga yaxshilash bilan birga betonlar mustahkamligi va uzoq muddat ishlashining muhim shartlaridan biri ularning suvga chidamliligini oshirishdan iborat bo‘lib, bunga qorishma tarkibiga gidrofob turdagi sirt faol samarali moddalarni qo‘shish orqali erishiladi.


Betonning korroziyasi - beton konstruktsiyasining buzilishi va uning atrof-muhit omillari ta'sirida buzilish jarayonidir. Bu ba'zi agressiv moddaning ta'siri ostida va bu moddaning beton konstruktsiyasining g‘ovakliklar yoki yoriqlari orqali beton konstruktsiyaga kirib borishi natijasida yuzaga keladi. Professor V.M.Moskvin nazariyasi bo‘yicha beton korroziyasining 3 ta turga bo‘lgan bular:

1. Yuvilish korroziyasi - suv tarkibida karbonat birikmalari bo‘lgan holda uchraydi, bu esa beton g‘ovakliklarida hosil bo‘lgan CaO bilan kislotaga qoldiqlari birikib strukturadgi mayda va yirik g‘ovakliklar orqali beton tanasida chiqib ketadi. Bu qayta-qayta takrorlanishi oqibatida nuqsonlar paydo bo‘ladi.

2. Oson eruvchi tuzlar amorf moddalar paydo bo‘lish korroziyasi. Bu korroziya asosan xlor birikmalari va ishqorli tarkibli suvlarda uchraydi. Bu tuzlar CaO bilan reaksiyaga kirishib oson eruvchi tuzlar hosil qiladi va beton tanasidan yuvilib chiqib ketadi.


3. Sulfat korroziyasi. Bu o‘ta xavfli korroziya hisoblanadi, hamda sulfat qoldig‘i tarkiblarida uchraydi. Sulfat birikmalari sement tarkibidagi  $3\text{CaO}\cdot\text{Al}_2\text{O}_3$  bilan reaksiyaga kirishib  $(\text{CaO})_3(\text{Al}_2\text{O}_3)(\text{CaSO}_4)_3(\text{H}_2\text{O})_{32}$  tuzini hosil qiladi. Bu tuz xarakteriga nisbatan juda qattiq tuz. Hidro sulfo alyuminat kaltsiy avvaliga hosil bo‘lganda birlamchi beton mustahkamligini oshiradi, lekin tuz miqdori

oshishi bilan g'ovaklikda bosim hosil bo'ladi. Bosim ortib beton strukturasi yorib



tashlaydi.

Betonni korroziyadan himoyalashda kimyoviy qo'shimchalardan foydalanish sezilarli darajada betonni yaxshilashi mumkin. Kimyoviy qo'shimchalar qo'shish natijasida g'ovaklikdagi tajavvuzkor moddalar harakat tezligini sekinlashtiradi. Betondagi suv sement nisbatini kamaytirish hisobiga beton tanasidagi mayda va yirik g'ovakliklarni kamaytiradi, buning natijasida beton zichligi ortadi. Kimyoviy qo'shimchalaridan biri yangi avlod polimer polikarboksilatidir. Uning ishlash printsipti shundaki rasmda ko'rib turganimizdek, polikarboksilatlar sement donalarining yuzasida adsorbsiyalanadi va ularga manfiy zaryad beradi. Buning



natijasida sement donalari bir-birini qaytaradi va sement shlamini, shuningdek

*1-rasm. Karroziya natijasida temir-betonning yemirilishi*

mineral tarkibiy qismlarni harakatga keltiradi. Plastifikatsiyaning samaradorligi yuqori bo‘ladi va doimiy aralashtirish bilan uning ta’siri uzaytiriladi. Polikarboksilatlarining plastiklashtiruvchi ta’sirining davomiyligi an’anaviy superplastifikatorlarga qaraganda kamida 3-4 baravar ko‘p.

**Xulosa:** Avval o‘tkazilgan tadqiqotlar kimyoviy qo‘shimchalar sement tizimiga ko‘rsatadigan ta’sir mexanizmi masalasini keng yoritib berdilar. Biroq sement toshi tuzilmasiga , sement va to‘ldiruvchi orasidagi o‘tish zonasi qalinligi va zichligiga ta’sir ko‘rsatayotgan qo‘shimchalar kompleksi(majmuyi) ta’siri masalasi, ularni betonni ishlash muddatini uzaaytirishda asosiy o‘rn tutadigan tuzilma hosil qilish davrlariga ko‘rsatadigan ta’siri kam o‘rganilganicha qolmoqda. Shu bilan birga kimyoviy qo‘shimchalar turi va tarkibi beton xossalarining shakillanishiga ta’sirini o‘rganish vaziyfasi ham kam o‘rganilgan. Shunga bog‘liq holda faol mineral qo‘shimchalar, plastifikatorlar va modifikatorlangan gidrofobizator asosidagi qo‘shimchalar majmuyidan foydalanib, mustahkam beton kompozitsiyasini ishlab chiqarishda tadqiqot olib boorish yanada batafsil o‘rganishni talab qiladigan dolzarb vazifadir.

**ADABIYOTLAR:**

1. X.A.Akramov, M.Turopov “Beton va temir-beton texnologiyasi” Toshkent-2021 yil.
2. Komilov X.X “Zamonaviy qurilish materiallari” (o‘quv-uslubiy majmua). TAQI.2020-y.
3. Gaziev U.A Qodirova D.Sh “Beton va qorishmalar uchun qo‘shimchalar” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent-2016-yil
3. Beton va temir-beton texnologiyasi (Qurilish qorishmalari texnologiyasi). O‘quv qo‘llanma. TAQI - 2020, Raximov Sh.T.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8- noyabrdagi № PQ-3379 - sonli «Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.



**MASHG‘ULOTLARDA MUSOBAQA USULI ORQALI  
FUTBOLCHILARNING HUJUM VA HIMOYADAGI TAKTIK  
HARAKATLARINI RIVOJLANTIRISH**

**Xusanov Xurshid Aminovich**

Namangan davlat universiteti magistranti

Email: [H.Husanov@gmail.com](mailto:H.Husanov@gmail.com)

**Annotatsiya:** “Jismoniy tarbiya va sportning xususiy metodlari” tarkibiga kiruvchi “Musobaqa usuli” dan foydalanish futbolchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning natijalarini yaxshilash, hujum va himoya taktikasini rivojlantirishda eng qulay vosita ekanligi haqida nazariy ma’lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** taktik tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, xususiy metodlari, musobaqa usuli,

**THE IMPORTANCE OF DEVELOPING FOOTBALL PLAYERS’  
ATTACK AND DEFENSIVE TACTICAL ACTIVITIES THROUGH  
COMPETITION IN TRAINING**

**Annotation:** Theoretical information on the use of the "Competition Method", which is part of the "Special Methods of Physical Education and Sports", is the most convenient tool for improving the system of training football players to improve their results, attack and defense tactics.

**Keywords:** tactical training, technical training, special methods, competition method.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan keyin jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishga katta etibor qaratildi. Ma’naviy-marifiy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va an’analar tiklandi, ayniqsa jismoniy tarbiya va sport bilan bog‘liq ko‘pgina tadbirlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-



yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni<sup>16</sup> buning yorqin dalili sifatida keltirish mumkin. Hozirda barcha sport turlarida hujum va himoya taktik tayyorgarligi alohida ahamiyat ega hisoblanadi. Bunga sabab mashg‘ulotlarda o‘yinning texnik usullari va uni o‘zlashtirish, jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi yuqori bo‘lishiga qaramasdan sportda yaxshi natija ko‘rsatish uchun sportchilarning taktik tayyorgarlikga ega bo‘lishi tabab qilinadi. Jismoniy tayyorgarlikning o‘rni, ayniqsa, musobaqalar bir necha kun o‘tkazilsa va musobaqa murosasiz davom etadigan bo‘lsa, hamda taktik tayyorgarlik yetarli bo‘lmasa, sportchilar hujum va himoya texnikasini kutilgan darajada bajara olmasligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Futbolchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish ularning natijalarini yaxshilash, hujum va himoya taktikasini rivojlantirishda “Jismoniy tarbiya va sportning xususiy metodlari” tarkibiga kiruvchi “Musobaqa usuli” dan foydalanish eng qulay vosita bo‘lib, hizmat qilishini quydagi malumotlarda bayon etiladi.

Sport mashg‘ulotlari jarayonida sportchilarni tayyorlashda ko‘pgina o‘rgatish usullaridan foydalaniladi. Albatta har bir usulni o‘ziga xos jihatli mavjud. Bizga tanish bo‘lgan usullardan biri musobaqa usuli hisoblanadi. Ushbu usuldan sport mashg‘ulotlarda ma‘lum bir o‘yin yoki harakat texnikasini o‘rgatishda foydalaniladi. Musobaqa usulining o‘ziga xosligi shundaki u orqali o‘yin texnikasini futbolchilar maksimal nomoyon etishga erishiladilar. Buning asosiy sababi o‘zaro raqobatlashuv hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sportning xususiy metodlari haqida so‘z yuritilganda albatta quydagi usullarni yodga olamiz.

Musobaqa usuli asosan mashg‘ulotlarda yangi o‘yin texnikasini o‘zlashtirilgandan so‘ng qo‘llaniladi natijada futbolchilari shu harakatlarni o‘zaro jamoalar o‘rtasida kichik musobaqa tashkillash orqali yanada mustaxkamlanadi. Bu musobaqa usulining o‘ziga xosligini to‘la yoritishga kamlik qiladi va uning yana bir eng kerakli jihati uni mashg‘ulotlarda faqatgina o‘yin texnikasiga oid harakatlarni

---

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni

tarbiyalashgina bo‘lmay, u orqali futbolchilar hujum va himoya taktikasi rivojlantirish uchun asosiy usul hisoblanadi.

Ushu usulda mashg‘ulotni tashkillash va o‘tkazishni qanchalik kerkligini va taktik harakatlarni rivojlanishi haqida so‘z yuritayotganda biz aslida o‘yin taktikasi o‘zini nima uni vazifasi haqida qisqacha malumot keltirsak. Taktika ikki ko‘rinishda amalga o‘shirilib, ular a) hujum taktikasi, b) himoya taktikasiga bo‘linadi. Taktika – malum bir texnik harakatlar to‘plamini mahorat bilan qo‘llashni oldinda va musobaqa jarayonida murabbiy hamda jammo tomonidan rejalashtish tushiniladi. Obrazli qilib aytganda, taktika bu – generallar o‘yinidir.

Chunki, mashg‘ulot va musobaqa jarayonida sportchilarning o‘yin faoliyati murabbiy tamonidan boshqariladi, barcha kerakli qarorlar qabul qilinadi. Ushbu usul yordamida mashg‘ulot tashkil etilsa, uning tub negizida o‘zaro musobaqalashuv o‘rin oladi va bu taktik tayyorgarlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun keng yo‘l ochib beradi.

Maqsad: Futbolchilarning hujum va himoyadagi taktik harakatlarini rivojlantirishda musobaqa usulidan foydalanish bilan ushbu harakatlarni tez o‘zlashtirishga imkon berishini ilmiy asoslashdir.

Vazifa: 1.Futbolchilarni mashg‘ulot jarayonida rejalashtirilgan taktik harakatlarni musobaqalarda qo‘llash hamda kamchiliklarni bartaraf etish .

2. bolchilarni hujum va himoyadagi taktik tayyorgarlik jarayonini optimallashtirishga doir ilmiy-uslubiy adabiyotlarni va musobaqa jarayonini o‘rganish hamda tahlil qilish;

Futbolchilarning mashg‘ulot jarayonidaga mos bo‘lgan usulni tanlash va unga hujum va himoyadagi taktik harakatlarni joylashtirish, bu jarayonga biz Futbolchilar tomomidan o‘yinda qo‘llanilishi kerak bo‘lgan hujum yoki himoya taktikalarni qay darjada o‘zlashtirilganligini bevosita nazortaga olish imkoni tug‘iladi hamda ulardan qay biri yuqori darajada bajarilyotgani yoki qaysidir taktik harakatni bajarishda futbolchilar muammoga uchrayotganligini ham aniqlab olamiz. Odatda o‘yin usuli yordamida shug‘ullanuvchilarni faoliyatga ijodiy yondoshuvni shakllantiriladi ammo,

musobaqa usuli esa sportchilarni texnik va taktik harakatlarni maksimal darajada namoyon qilishga majbur qilib qo‘yadi. Bunga asosiy sabab bu har bir mashg‘ulotda musobaqalashuv, o‘zaro raqobat va g‘oliblikka intilish borligi hisoblanadi.

**Xulosa:** Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish hamda amaliyotda futbolchilarning tayyorgarligi jarayonini kuzatish natijasida olib borilayotgan mashg‘ulotlarda aynan musobaqa faoliyatiga xos bo‘lgan taktik harakatlarini rivojlantirishga yetarli darajada e‘tibor berilmasligi hamda tayyorgarlik davrining bosqichlarida mana shunday harakatlarga oid metodik jihatdan yondoshuvning yetishmasligi yosh sportchilarda hujum va himoyadagi taktik harakatlarni rivojlantirishni samarali tashkil etish imkonini bermay kelayotganligi ma‘lum bo‘ldi.

Futbol mashg‘ulotlarida sportchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasi shakllangandan so‘ng, futbolchilarning mashg‘ulot jarayonlarini musobaqa usuli orqali tashkil etilishi sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatishini hisobga olgan holda nazariy jihatdan musobaqa oldi tayyorgarlik davrida futbolchilarning hujum va himoyadagi taktik tayyorgarligini amalga oshirishda yuqorida tavsiya etilgan ro‘yxatdagi taktik usullarni musobaqa usulidagi mashg‘ulotlarda bajarilishi taktik harakatlarni o‘zlashtirish, mustaxkamlash va takomillashtirish jarayonlari tez va samarali hal etiladi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. A.I Talipdjanov Yuqori malakali futbolchilar tayyorlashning zamonaviy tizimi. 0 ‘quv qo‘llanma. - T.: 2012. 366 b.
2. A. Abdullayev. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi, Farg‘ona - 2016 372 b.
- 3.R.S.Salomov. Jismoniy tarbiya nazaryasi va uslubiyati, Toshkent-2014

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСВОЕНИИ УРОКОВ ИСТОРИИ

**Абдурасулов Жахонгирмирзо**

Ташкентская область Чирчикская область

университетская педагогика

Факультет спорта и допризывного военного образования

Студент направления допризывного военного образования 3\_ уровня

[jmra9923@gmail.com](mailto:jmra9923@gmail.com)

**Аннотация:** В статье мы рассмотрим некоторые методы, которые можно использовать при организации урока истории. Историческая наука является одним из основных предметов в школьной программе, и на сегодняшний день преподавание этой дисциплины на основе современных технологий является одним из актуальных вопросов для педагогов.

**Ключевые слова:** мышление, историческая грамотность, сроки, социальные сети.

В последние годы исследования в области исторической науки увеличиваются. Издавна интересуясь обучением учащихся научному мышлению, педагоги обращали внимание на источники, из которых складывается историческое мышление, или, говоря современным языком, "историческая грамотность". Важное место в организации урока истории занимает оживление урока. Один мощный способ-использовать эту технологию.

Когда история уходит в высокие технологии, могут произойти удивительные вещи! Именно здесь ученики берут на себя ответственность за свое активное обучение. Когда история уходит в высокие технологии, могут произойти удивительные вещи! Несколько идей о движениях, которые



используют технологии, чтобы оживить жизнь, представлены на монотонных уроках истории:

Создавайте цифровые исторические временные рамки. Студентов всегда просят изучить время и даты, которые включают различные периоды истории. Тем не менее, существует большая разница между чтением и изучением временной шкалы, а также способностью запоминать ее.

Студенты могут использовать бесплатные онлайн-ресурсы для создания интерактивных расписаний, которые охватывают материалы, которые им нужны или которые они хотят изучить. Интерактивные временные рамки позволяют учащимся создавать графические изображения событий, вводя важную для них информацию. С помощью простого онлайн-поиска студенты могут создавать различные временные шкалы для использования. Публикуйте газетные статьи об исторических событиях или фигурах. Читатели могут проявить творческий подход к написанию статьи, как им заблагорассудится. Возможно, они хотели взять интервью у известного (или не очень известного) человека в истории, чтобы "засвидетельствовать", какой была жизнь в то время. Бесплатные онлайн-инструменты в интернете генераторы газетных вырезок и газетные шаблоны делают этот вид деятельности интересным для студентов, и эти инструменты можно использовать для написания исследований и идей.

Видеопроекторы, мобильные карты, 3D-наглядные пособия, мини-макеты, исторические рукописи и исторические фигуры в музеях дают мощный толчок развитию сознания учащихся к глубокому пониманию предмета истории, повышают их интерес к предмету и дают им доступ к большому количеству информации о предмете или ученых.

Используйте социальные сети, чтобы познакомиться с людьми из вашего прошлого. Социальные сети широко используются во всем мире, и большинство читателей знают о таких сайтах, как Telegram, Facebook, Twitter и Instagram. Один из способов использовать это знакомство - использовать поддельные сайты

социальных сетей, чтобы дать студентам творческий инструмент для знакомства с людьми, которых они встречают на уроках истории.

Один сайт позволяет пользователям создавать страницу, похожую на Facebook, о ком угодно. Они перечисляют биографические данные человека, симпатии и антипатии, достижения и даже создают обновления статуса, которые отражают, как эта фигура может думать о прошлом своей эпохи. Как может выглядеть страница Альберта Эйнштейна? Что происходит с доктором Мартином Лютером Кингом-младшим? В Интернете доступно множество поддельных шаблонов социальных сетей. Принесите цифровые истории в класс.

Цифровые истории используют различные программы, которые позволяют читателям создавать исторические документальные фильмы. Студенты двигаются, собирая исследовательские, текстовые, повествовательные, иллюстрации, видео и аудио фрагменты, чтобы рассказать о событиях, которые имеют значение для истории.

Они могут делиться своими документальными фильмами с другими через экраны компьютеров или телевизоров. Студенты больше не являются пассивными получателями информации; вместо этого они являются активными участниками самообучения. Они способны хорошо использовать свои навыки критического мышления и решения проблем, а также много творчества.

#### **Список литературы:**

1. Pastplay: обучение и обучение HistorywithTechnology, Кевин Ки, DigitalHumanities.
2. Сэмюэл Винебург, "On The Reading of Historical Texts: заметки о Breach Between School and Academy", " американский журнал образовательных исследований 28, no. 3 (1991): 495–519.
3. Новая стратегия Узбекистана
4. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)
5. [www.my.gov.uz](http://www.my.gov.uz)

## АНДИЖОН ВИЛОЯТИ ШАРОИТИДА КОЛОРАДО ҚЎНҒИЗИ БИОЛОГИЯСИ ТАРҚАЛИШИ ЗАРАРИ

**Рахмонова Мадинахон Кимсанбоевна**

Андижон кишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти доценти

**Бекмуродова Нилуфар**

Андижон кишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти магистр.

**Аннотация:** Колорадо кунгизининг асл ватани Мексика. Аммо, 1859 йилда АКШнинг Колорадо штатидаги картошка далаларида уюштирилган дахшатли «киргин»дан сунг хозирги номи берилган. Ушбу хашарот Ўзбекистонга илк бор 1974 йилда Белорусдан келтирилган картошка уруглиги билан бирга келган.

**Annotatsiya:** Mexico is the birthplace of Colorado day. However, in 1859, the Sung got its current name from a terrible "Kirgin" organized in the potato fields of Colorado, USA. This insect first came to Uzbekistan in 1974 with potato seeds imported from Belarus.

**Калит сўзлар:** Колорада қўнғизи, *Leptinotarsa decemlineata*, тана барг, поя.

**Key words:** Colorado potato, *Leptinotarsa decemlineata*, body leaf, stem.

**Қириш** Колорада қўнғизи (*Leptinotarsa decemlineata* Say.) **баргхўрлар** туркумининг қўнғизлар оиласига мансуб хашарот, ашаддий хавфли ўсимлик зараркундаси. Танаси ўз. 9 — 12 мм, **елка** ва уст қаноти сарғиш ёки сарғишқизил, олдинги елкасида 12—14 та қора доғлари бор, қаноти устидан 5 та қора **чизик** ўтган. Тухумининг катталиги 1,2—1,8 мм, қурти уз. 15—16 мм, пуштиқизил, ғумбаги 10—12 мм. Колорадо қўнғизи тупроқда (20—50 см чуқурликда) қўнғизлик даврида қишлаб, апр. ойида қишловдан чиқади

